2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 81 (1142), 2024-yil 27-aprel, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

TEMIR INTIZOM — BARQAROR RIVOJLANISHNING ASOSIY TALABI

Har bir inson ishda muvaffaqiyat qozonishni, oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishni xohlaydi. Lekin hamma ham bunga birdek erishavermaydi. Chunki katta-katta maqsad va rejalarimiz amalga oshishi uchun xohish va istaklarimizning o‘zi yetarli emas.

Bu har birimizdan bilim, salohiyat, tinimsiz izlanish va albatta, tartib-intizomni talab qiladi. Aks holda, maqsad mohiyati o‘zgarib, orzu yoki shunchaki shirin xayolga aylanadi.

Muvaffaqiyatga erishgan insonlar, sizga tanish oilalar yoki kompaniyalar faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsangiz, buning siri aql-idrok bilan bir qatorda tartib-intizomda ekanini ko‘rasiz.

Davlatlarning muvaffaqiyati, katta-katta maqsadlarga erishish siri ham shunda. Aytaylik, O‘zbekiston 2030-yilga borib, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming dollardan oshirib, daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish maqsadini belgiladi. Unga erishish chora-tadbirlarini ishlab chiqdi. Ushbu maqsadga erishish ko‘p jihatdan bu borada belgilangan vazifalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishiga bog‘liq. Boshqacha aytganda, ijro organlarining temir intizomiga.

Davomi 2-betda

Xushxabar

“O‘zbekiston AQSHning intellektual mulk bo‘yicha qora ro‘yxatidan chiqarildi”. Bu xushxabarni mediamakonimizdagi navbatdagi yangilik sifatida o‘tkazib yuborib bo‘lmaydi. Chunki birgina shu jumla ortida yillar davomida qilingan ishlar samarasi, iqtisodiy barqarorlik sari tashlanayotgan dadil qadamlar o‘z ifodasini topgan. Uning ahamiyatini teran anglash uchun, avvalo, intellektual mulk nima ekani haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz kerak.

INTELLEKTUAL MULK HIMOYASI

O‘ZBEKISTON “QORA RO‘YXAT”DAN CHIQDI

Mamlakat taraqqiyoti juda ko‘p jihatlarga bog‘liq. Shunday sabablarni sanaganda, birinchilardan bo‘lib malakali kadrlarni eslaymiz. Haqiqatan, o‘z sohasining ustasi bo‘lganlar davlat va jamiyat rivojining asosiy kuchidir. Buni ortiqcha izohlash shart emas, nazarimda.

Ayni paytda malakali kadrlar mamlakatning intellektual salohiyati hisoblanadi. Intellektual mulk insonlarning ijodiy-aqliy faoliyati mahsuli. Deylik, kimdir bitta kichik texnikani kashf etdimi, uni duch kelgan kishi ishlab chiqaravermasligi kerak. Aks holda, tartib buziladi. Asl ilmning egasi chetda qolib, yangilikni o‘g‘irlab, o‘zlashtirib olganlar ko‘proq foyda ko‘ra boshlaydi. Oqibat biznes, ishlab chiqarishda ortga chekinish kuzatiladi. Sabab oddiy, ishbilarmon uchun kashfiyot qilish yoki uni sotib olishdan ko‘ra o‘g‘irlash oson bo‘lib qoladi.

Davomi 2-betda

Milliy kontent

HAQIQATNI YOLG‘ONDAN AJRATISH YO‘LI

YOXUD DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MEDIASAVODXONLIKNING AHAMIYATI

Mediasavodxonlik — mediaaxborotni samarali boshqarish, tahlil etish, tanqidiy baholash hamda mediaaxborot muhitida faol va samarali muloqot qilish imkonini beradigan kompetensiya. U insonga televideniye, radio, gazeta, jurnal, veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar kabi turli manbalardan olingan ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish, filtrlash va foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma hamda malakalar beruvchi majmuani taqdim etadi.

Bugungi sharoitda mediasavodxonlik turli muammolarga duch kelmoqda. Ulardan biri raqamli madaniyat axborot-kommunikatsiya normalari o‘zgarishidir. Shu o‘rinda mediasavodxonlikning davlat boshqaruvidagi o‘rni yanada oshib borayotganini aytib o‘tish lozim. Chunki aynan mediasavodxonlik raqamli asrda jamoatchilik va turli manfaatdor guruhlar bilan samarali aloqalar hamda muloqotni amalga oshirishga yordam bera oladi.

Bugungi raqamli ekotizim mediasavodxonlik borasida murakkab vaziyatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, soxta yangiliklar tarqalishi, ma’lumotlarni manipulyatsiya qilish va algoritmik dizaynlardan foydalanish ma’lumotlar to‘g‘riligini tekshirishni qiyinlashtirmoqda. Bundan tashqari, yopiq jamoalar va filtr pufakchalar paydo bo‘lishi samarali muloqot va fikrlar xilma-xilligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Masalan, onlayn tarmoqlar va muqobil mediaplatformalar dunyo bo‘ylab nafratlanuvchi guruhlar paydo bo‘lishiga olib kelyapti. Bundan tashqari, raqamli makonlarda kommunikatsiya tezligi ko‘plab muassasalarning imkoniyatlaridan ancha yuqori.

Zamonamizning eng katta ijtimoiy va fuqarolik muammolari — migratsiya, iqlim o‘zgarishi, global mojarolar ham internetda, ham ommaviy nutqda vahima uyg‘otuvchi axborotlar sifatida ommalashdi. Siyosiy memlar AQSHda 2016-yilgi saylov paytida alt-right (muqobil o‘ng) harakati boshlanishiga olib keldi. Reddit forumi asosiy ommaviy axborot vositalari orqali xalqaro maydonda xayoliy yangiliklarni yaratdi va tarqatdi. Bundan tashqari, Prezident tvitlari hozirga qadar kundalik milliy va global ommaviy axborot vositalari kun tartibini belgilashda davom etmoqda.

Davomi 3-betda

Yangicha yondashuvlar

MINTAQAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALAR XABI

USHBU MAQSADGA ERISHISHDA XALQARO HAMKORLIKNING O‘RNI

Ayni paytda yurtimizdagi zamonaviy axborot texnologiyalari parklarida minglab startaplar ustida ishlanyapti, malakali dasturchilar tayyorlanmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy axborot texnologiyalar xabiga aylantirish uchun qator vazifalar belgilangan. Bunda axborot texnologiyalari parki eksport qiluvchi rezidentlari sonini 200 taga oshirish, jumladan, xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalarni 30 taga ko‘paytirish, kompyuter dasturlash va autsorsing xizmatlari hajmini 10 trillion so‘mga va ularning eksportini 800 million dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Dunyo tajribasida ilmiy tadqiqotlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, startap g‘oyalar, kompyuter savodxonligiga juda katta e’tibor beriladi. Shunday ekan, iqtisodiy taraqqiyotga erishish yo‘li faqatgina ilm-fan yutuqlari va yangi texnologiyalar orqali bo‘ladi.

Axborot texnologiyalari parklari esa mana shunday maqsadlarni o‘zida mujassam etgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning muhim shartidan biri mana shunday dasturiy mahsulot va raqamli xizmatlarni taqdim etish uchun qulay shart-sharoit yaratish, ularni ichki hamda tashqi bozorga olib chiqish, innovatsion ishlanmalarni rag‘batlantirishdir.

Davomi 3-betda

ONA ZAMIN NE’MATLARI

104 TA XOSIYATGA EGA DARAXT

yurtimiz tuprog‘ida qanday ildiz otyapti?

Zaytun eng qadimgi daraxtlardan biri. Arxeologik qazishmalar uning 20-40 million yillar oldin O‘rta yer dengizi sohillarida o‘sgani, bundan 7 ming yillar muqaddam hozirgi mevali turi paydo bo‘lgani va miloddan avvalgi 3150-1200-yillardan maxsus ekila boshlaganidan guvohlik beradi. Zaytunga doir bir-biridan maroqli ko‘hna rivoyatlar ko‘p, muqaddas kitoblar, xususan, “Avesto”da ham uning mo‘jizaviy xosiyatlariga oid bitiklar bor.

Abadiy yashillikka yuz tutgan, ya’ni yilning to‘rt faslida ham yaproqlari sarg‘ayish neligini bilmaydigan bu daraxt o‘rtacha 500 yil, ba’zilari 1500 yil va undan ko‘proq ham umr ko‘radi. Turkiyada “Ota” deb ataluvchi zaytun daraxti 32 asrni, Gretsiyaning Krit orolidagi zaytun 40 asrni qaritgan bo‘lsa, Falastindagi turdoshining yoshi ma’lumotlarda qayd etilishicha, taxminan 5000 yil atrofida. Hozir ham uning qarilikdan to‘zg‘igan shoxlaridan chiqqan yashil novdalari 250 kvadrat metrni egallaydi, bo‘yi 13 metr. Tomirlari undan ikki barobardan ko‘proq chuqur yerga ildiz otgan. Bog‘bon Abu Alining aytishicha, ushbu zaytunning mevasi ilgari yiliga yarim tonnagacha moy bergan, hozirga kelib 250 kiloga tushgan, lekin sifati jahondagi har qanday turdoshi mahsulidan yuqori turadi.

— Dunyoda iste’mol qilinadigan o‘simlik yog‘lari orasida inson organizmi uchun eng foydalisi va sifatlisi deb tan olingani zaytun moyidir, — deydi qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor Dilorom Yormatova. — Chunki u o‘z kimyoviy tarkibiga ko‘ra, ekologik toza va inson hayoti uchun zararli moddalar saqlamaydi, salomatlikni mustahkamlaydigan 104 xil element mavjud. Oson hazm bo‘lishi, ona suti tarkibidagi moddalarga juda o‘xshashligi bilan ajralib turadi. Shu bois, qadim zamonlardan buyon tabiblar, jumladan, buyuk hakim Abu Ali ibn Sino ham undan ko‘plab xastaliklarni davolashda foydalangan.

Davomi 4-betda

Tadbirkorlar mahsulotlarini brendga aylantirish dasturi va “elektron maydonchasi”ni ishlab chiqish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bularning barchasi qisqa muddatda erishilgan va uzoq vaqtdan buyon og‘riqli nuqtamiz bo‘lgan masalaga yechim topilganidan dalolat.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 27-aprel, 81-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

TEMIR INTIZOM — BARQAROR RIVOJLANISHNING ASOSIY TALABI

Ilhom NORQULOV,
iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Shu ma’noda mamlakatimizda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ijro intizomiga rioya etilishi bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yilgani ayni muddaodir. Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida bu borada aniq vazifa va yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Mazkur hujjatlar qabul qilinishi ushbu yo‘nalishning qay darajada muhimligini ko‘rsatib berdi. Binobarin, ijro intizomi bugungi kunda yurtdoshlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yanada yaxshilashga doir qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlarda belgilangan topshiriqlar ijrosi o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlashda eng muhim hamda asosiy shartlardan biridir.

Mana shundan kelib chiqib, nomi yuqorida qayd etilgan farmon bilan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni puxta ishlab chiqish hamda qabul qilishning ta’sirchan amaliyotini shakllantirish, belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni aniq ijrochilar, keng jamoatchilik va aholiga tezkor yetkazish bo‘yicha shoshilinch hamda tezkor choralar ko‘rish maqsadida tashkiliy, ijro va nazorat faoliyatining yagona tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida ham belgilab berilgan vazifa va topshiriqlar ahamiyatidan kelib chiqib, ijro intizomiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Qonunlar, Prezidentning farmon, qaror, farmoyish

va topshiriqlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari va yig‘ilish bayonlarida vazirlik ijrochi etib belgilangan topshiriqlar uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligida nazorat rejalari, ayrim hollarda vazirlikning ularni o‘z ichiga olgan maxsus ichki buyrug‘i tasdiqlanadi.

Nazorat rejalarida har bir topshiriq uchun mas’ul etib tegishli tarkibiy tuzilmalar belgilanadi, uni amalga oshirish mexanizmining har bir bosqichi aniq muddatlar ko‘rsatilgan holda tasdiqlanib, ijroga yo‘naltiriladi.

Shundan so‘ng topshiriqlar ijrosi hisoboti “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” asosida, ya’ni sifati hamda haqqoniyligi yuzasidan Adliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasi nazoratidan o‘tadi.

Vazirligimizda Tashkiliy ishlar va ijro intizomi boshqarmasi tomonidan keyingi o‘n kunlik, oylik va choraklikda ijro muddati keladigan hujjatlar tahlil qilinib, mas’ul ijrochi bo‘lgan departament yoki boshqarma rahbarlariga elektron shaklda vazirlikning ichki hujjat almashinuv tizimlari orqali doimiy ravishda ma’lumot taqdim etiladi. Zarurat yuzaga kelgan hollarda tegishli mutaxassislar bilan birgalikda topshiriq va vazifalar ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash choralari ko‘riladi.

Vazirligimiz tizimida ijro intizomini yanada mustahkamlash maqsadida Prezident va hukumat, shuningdek, yuqori turuvchi organlarning har bir topshiriqlari ijrosini amalga oshirishda alohida yondashuv, tartib va professionallik bilan ish ko‘riladi.

Jumladan, hisobotlar tayyorlanib, tegishli sohalar bo‘yicha kompleks rahbarlariga, ya’ni vazir o‘rinbosarlariga har haftaning payshanba kunlari ma’lumotlar elektron shaklda taqdim etib boriladi.

Shuningdek, ijro intizomi yuzasidan vazirning birinchi o‘rinbosari huzurida har haftaning juma kunlari hamda vazir huzurida har haftaning dushanba kunlari muhokamalar tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan.

Umuman olganda, o‘z muddatida ijrosi ta’minlanmagan topshiriq mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojini, aholiga qulaylik yaratishni, yangi ish o‘rinlarini ochishga qaratilgan harakatning kechikishiga sabab bo‘lishini inobatga olib, temir intizom orqali ish tutamiz.

Shu o‘rinda vazirlik tizimida ijro intizomining qay darajada ta’minlanayotganini raqamlarda tahlil qilsak. 2023-yilda “Ijro.gov.uz” tizimida davlatimiz rahbarining jami 2504 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lsa, shundan 1004 tasida vazirligimiz asosiy ijrochi sifatida belgilangan edi. E’tiborli jihati, barcha topshiriqlarning ijrosi ta’minlandi.

Shuningdek, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va hukumat komissiyasi topshiriqlari bo‘yicha jami 4154 ta, shu jumladan, vazirlik bevosita asosiy ijrochi etib belgilangan

> **Topshiriqlarning to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishi hamda ularning ijrosi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar tegishli dasturlar orqali to‘liq, to‘g‘ri hamda o‘z vaqtida taqdim qilinishi uchun vazirlikning barcha darajadagi rahbar va xodimlarining shaxsiy mas’uliyati va javobgarligi KPI tizimi orqali baholab boriladi.**

1839 ta topshiriq nazoratga olinib, ularning ham ijrosi to‘liq ta’minlandi.

2024-yilning birinchi choragida ayni yo‘nalishdagi ishlar izchil, qat’iy tartib-intizom asosida davom ettirildi. Xususan, qonunlarda belgilangan 1 ta, davlatimiz rahbarining farmon va qarorlarida belgilangan 142 ta va hududlarga tashrifi hamda Prezident rahbarligida o‘tgan yig‘ilish bayonlarida belgilangan 31 ta, “Ijro.gov.uz” tizimida vazirligimiz asosiy ijrochi etib belgilangan 174 ta topshiriq nazoratga olinib, ijro etildi.

Bundan tashqari, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va hukumat komissiyasining vazirlik asosiy ijrochi bo‘lgan 331 ta topshirig‘i (jami 849 ta) ijrosi ham to‘liq ta’minlandi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligida ushbu yo‘nalishda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik, belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish maqsadida sohalar bo‘yicha komplekslarga ijro intizomi bo‘limidan bir nafardan xodim ajratilgan.

Har bir bo‘lim xodimi o‘ziga biriktirilgan komplekslar bilan birgalikda tasdiqlangan ish reja va grafiklarga asosan, har bir topshiriqqa individual yondashib, kunbay tahlil va nazorat tizimi orqali uni barvaqt bajarish choralarini ko‘rish bo‘yicha mutaxassislarga har tomonlama ko‘maklashadi.

Shuningdek, topshiriqlarning to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishi hamda ularning ijrosi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar tegishli dasturlar orqali to‘liq, to‘g‘ri hamda o‘z vaqtida taqdim qilinishi uchun vazirlikning barcha darajadagi rahbar va xodimlarining shaxsiy mas’uliyati va javobgarligi KPI tizimi orqali baholab boriladi.

Belgilangan muddatda topshiriqlar ijrosini ta’minlashda mas’uliyatsizlik va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan mas’ul tuzilmalarning mehnat jamoasiga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli choralar ko‘rish orqali kelgusida bunday kamchiliklarning yuzaga kelishiga imkon beradigan sabab hamda sharoitlar bartaraf etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi (www.project.gov.uz) orqali vazirlikka kelishish uchun taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi uchun mas’ul ijrochi va ijro muddati tasdiqlanib, ijroga qaratib kelinyapti.

Vazirlikda topshiriqqa ko‘ra yoki tarkibiy tuzilmalari tashabbuslari bilan ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati va ularning doimiy monitoringi Muvofiqlashtirish va axborot-tahlil departamenti tomonidan samarali yuritib kelinmoqda.

Loyihalarni ishlab chiqish jarayonida belgilangan muddatlardan kechikish ehtimoli xavfi aniqlansa, mas’ul ijrochilar vazirlik tomonidan doimiy ogohlantiriladi. Shu bilan birga, www.project.gov.uz tizimiga joylashtirilgan loyihalar, ularning tasdiqlanishigacha bo‘lgan har bir jarayon vazirlik moderatori tomonidan doimiy, tizimli ravishda nazorat qilinadi.

Muvofiqlashtirish va axborot-tahlil departamenti muddati o‘tgan yoki belgilangan muddatda ishlab chiqilishi xavfi mavjud loyihalarni doimiy tahlil qilib, vazirlik rahbariyatiga kunlik axborot berib boradi. O‘z navbatida, har qanday ehtimolni taxmin qilish va oldini olish choralari ko‘rilayotgani vazirlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali hal etilishiga xizmat qilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, oldimizga qo‘yilgan yuksak maqsadlarga erishish uchun ijro intizomini yanada yaxshilashimiz, buning uchun esa rahbar va mas’ul xodimlar mas’uliyatini oshirish, dunyoqarashini rivojlantirish kabi muhim mezonlarga asoslangan yagona tizim yaratishga alohida e’tibor qaratmog‘imiz shart va majburiydir.

Xushxabar

Boshlanishi 1-betda

Masalan, siz noyob dori ixtiro qildingiz. Uni ishlab chiqarishga mablag‘ingiz yo‘q. Shunda uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazib, mualliflik huquqingizni mustahkamlaysiz. So‘ngra davlat yoki tadbirkor dorini sizning roziligingiz bilan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi. Shu orqali siz moddiy manfaat ko‘rasiz. Natijada o‘qib-o‘rganishni rag‘batlantirish orqali yangi va yanada yaxshi kashfiyotlarga zamin yaratiladi. Agar yangi mahsulot xalqaro darajada sotuvga qo‘yilsa, endi u mamlakatga katta foyda keltiradi.

Mualliflik huquqi mustahkam bo‘lgan jamiyatda har qanday tadbirkor o‘z bozorini topa oladi. Shu vaqtgacha bozorlarda taniqli brendlar mahsulotining nomi xato yozilganiga guvoh bo‘lganmiz. Ular aynan mualliflik huquqiga amal qilmay ishlab chiqarilgan mahsulotlardir. Bunday bozorda soxta va sifatsiz mahsulot sabab brend obro‘siga putur yetadi. Shuning uchun ishbilarmonlar biror mamlakatga katta sarmoya kiritadigan bo‘lsa, avvalo, huquqlari har jihatdan himoya qilingan davlatlarni tanlaydi. Mualliflik huquqi mustahkamlangan yurtlarda taraqqiyot jadal tus olishining sababi ham shunda.

Ayni sabab tufayli ham O‘zbekiston intellektual mulkning huquqiy muhofazasi va himoyasi holati bo‘yicha AQSH Savdo vakilligining (USTR) 301-maxsus hisobotidagi “kuzatuvdagi davlatlar ro‘yxati”dan (qora ro‘yxat) chiqarilgani muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, O‘zbekiston 2000-yilda mazkur ro‘yxatga kiritilgan va o‘shandan buyon “kuzatuvdagi davlatlar ro‘yxati”da edi. Aytish kerak, muayyan davlatning bu ro‘yxatda turishi unda intellektual mulkni himoya qilish borasida jiddiy muammolar borligini bildiradi. Bu esa o‘sha mamlakatga xorijiy korxonalar tomonidan investitsiya kiritishga to‘siq hisoblanadi. Boshqacha aytganda, investorlar muayyan davlatda sog‘lom raqobat qay darajada ekanini

INTELLEKTUAL MULK HIMOYASI

O‘ZBEKISTON “QORA RO‘YXAT”DAN CHIQDI

shu ro‘yxatdagi ko‘rsatkichlarga qarab belgilaydi.

Intellektual mulk himoyasining ana shunday muhim jihatlaridan kelib chiqib, yurtimizda keyingi yillarda soha islohiga alohida e’tibor qaratildi va natijada mazkur yo‘nalish tub o‘zgarishga yuz tutdi. Jumladan, taraqqiyot tushovi bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari joriy etildi. Qolaversa, intellektual mulk sohasiga tajribali kadrlar jalb qilindi. Ularni moddiy rag‘batlantirish choralari ko‘rildi. Shuningdek, intellektual mulkni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda talabnomalarni qabul qilish jarayoni to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi. Bu esa shaffoflikni ta’minladi. Shu kabi izchil islohotlar bugun e’tirof etildi.

Ya’ni USTR hisobotida qora ro‘yxatdan chiqishimizga intellektual mulk himoyasi sohasidagi uzoq muddatli muammolarni hal qilishda erishilgan yutuqlar sabab bo‘lgani qayd etildi. Shuningdek, unda Bojxona kodeksiga kiritilgan o‘zgartishlar ham keltirib o‘tilgan.

Ushbu kodeksdagi o‘zgarishlar sabab bojxona organlari vakolatlari mustahkamlangan edi. Natijada kontrafakt tovarlar olib kirishga qarshi kurashish yangi bosqichga ko‘tarildi. Bundan tashqari, USTR mualliflik huquqlari va patentlar masalasiga “yuqori darajadagi siyosiy” e’tibor qaratilganini ta’kidlagan.

— Bu natijaga erishish oson bo‘lgani yo‘q, — deydi Adliya vazirligi matbuot kotibi Sevara O‘rinboyeva. — Oxirgi besh yilda intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblari soddalashtirildi. Ularga bo‘lgan huquqlarni samarali himoyalash, xalqaro shartnomalarga a’zo bo‘lishga alohida e’tibor qaratildi. Tashqi aloqalarni rivojlantirish hamda JSTning TRIPS bitimi talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yo‘nalishida tizimli ishlar amalga oshirildi. Natijada sarmoyadorlarning asosiy mezoni hisoblangan ro‘yxatdagi ko‘rsatkichimiz yaxshilandi.

2020-yilda jami 4254 ta intellektual mulk obyekti ro‘yxatga olingan edi. Ushbu ko‘rsatkich 2021-yilda 10 mingga yaqinlashgan bo‘lsa, 2022-yilda 13 mingdan va 2023-yilga kelib esa 15 mingdan ortiqni tashkil qildi. Mana shu raqamlarning o‘ziyoq jamiyatimizda intellektual mulkning himoyasi yildan yilga mustahkamlanib borayotganini anglatadi.

Sohadagi islohotlar, yangilanish jarayonlari shu bilan to‘xtab qolgani yo‘q. Xalqaro tashkilotlar mutaxassislari ko‘magida intellektual mulk obyektlarini baholovchilarni tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu esa intellektual mualliflikni jahon standartlarida qabul qilish imkonini berdi.

> **2020-yilda jami 4254 ta intellektual mulk obyekti ro‘yxatga olingan edi. Ushbu ko‘rsatkich 2021-yilda 10 mingga yaqinlashgan bo‘lsa, 2022-yilda 13 mingdan va 2023-yilga kelib esa 15 mingdan ortiqni tashkil qildi. Mana shu raqamlarning o‘ziyoq jamiyatimizda intellektual mulkning himoyasi yildan yilga mustahkamlanib borayotganini anglatadi.**

Ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlarining “elektron yarmarkasi” tashkil etildi. Bu sohadagi ochiq va shaffof bozor, degani. Ana shu bozorda barcha o‘z o‘rnini topishi uchun patent egalari tadbirkorlar bilan bog‘lab berilmoqda.

Bundan tashqari, tadbirkorlar mahsulotlarini brendga aylantirish dasturi va “elektron maydonchasi”ni ishlab chiqish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bularning barchasi qisqa muddatda erishilgan va uzoq vaqtdan buyon og‘riqli nuqtamiz bo‘lgan masalaga yechim topilganidan dalolat.

O‘rni kelganda ta’kidlash kerakki, bunday jarayonni har bir rivojlanayotgan mamlakat boshidan o‘tkazishi tabiiy. Bunga davlatlarning mazkur sohadagi holatini baholaydigan AQSHda bo‘lgan hayotiy misolni keltirsak. 1927-yilda tug‘ilgan ixtirochi Robert Kerns avtomobilning old oyna tozalagichi uchun motor kashf etadi va uni to‘xtab ishlaydigan qiladi. Ungacha haydovchi oyna tozalagichni qo‘li bilan tutqichni tinimsiz aylantirish evaziga ishlatar edi. Bu ixtiro ishlab chiqarishini yo‘lga qo‘yish uchun katta avtosanoatga murojaat qiladi. Ular esa muhandisning ishonchiga kirib, yangi texnologiyani o‘zlashtirib oladi. Shundan so‘ng Robert Kerns umrining katta qismini mualliflik huquqini tiklashga sarf etadi. Nihoyat u sudda o‘ziga o‘zi advokatlik qilib g‘olib bo‘ladi. Katta miqdorda jarima undiradi.

Endi o‘ylang, Robert Kerns nohaqlikka duch kelmaganida yoki sud tizimi o‘z vaqtida adolatli qaror chiqarganida ixtirochi umrining katta qismini, quvvatini nohaqlikka qarshi kurashishga sarflamagan bo‘lardi. Mana shuning o‘ziyoq davlatlar rivoji intellektual mulkning ishonchli himoyasi bilan mutanosib ravishda o‘sib borganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston AQSHning intellektual mulk bo‘yicha “qora ro‘yxat”idan chiqarilgani haqidagi xabar biz uchun navbatdagi mediamahsulot emas. U oldimizdagi yuksak marralar sari ochilgan yo‘l avvalidagi mayoq, desak mubolag‘a bo‘lmas.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Milliy kontent

HAQIQATNI YOLG‘ONDAN AJRATISH YO‘LI

YOXUD DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MEDIASAVODXONLIKNING AHAMIYATI

Mansur YUNUS,
Davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra mudiri, dotsent

Boshlanishi 1-betda

Shu o‘rinda ishonchsizlik, qutblanish va partiyaviylikka yo‘naltirilgan axborotlar ko‘payib borishi sharoitida mediasavodxonlik borasida qanday yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim, degan haqli savol tug‘iladi.

Bir tomondan, mediasavodxonlik haqiqatni yolg‘ondan ajratishga, manipulyatsiya va soxta yangiliklarni aniqlashga hamda media tashkilotlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan mafkuralarni tushunishga yordam beradi. Shuning uchun mediasavodxonlikni oshirish, ayniqsa, davlat boshqaruvi xodimlariga ommaviy axborot vositalaridan uzatilayotgan axborotlardan ongli iste’molchi sifatida ko‘proq xabardor bo‘lishga yordam beradi.

Ikkinchi tomondan, mediasavodxonlik media tashkilotlari faoliyatida muhim o‘rin tutishi lozim. Xususan, OAVning professional jurnalistika tamoyillariga amal qilishi, to‘g‘ri va xolis axborot taqdim etishi, fikr va ovozlar rang-barangligiga e’tibor qaratish muhim. Bu ommaviy axborot vositalari va ularning ta’siridan kelib chiqadigan ishonchsizlik va qutblanish muammolarini bartaraf etishga yordam beradi. Bunga fuqarolarni OAV ma’lumotlarini tahlil qilish va baholashga o‘rgatish, ularning mas’uliyatini oshirish va sifatli ishlashini ta’minlash orqali erishish mumkin. Bundan tashqari, odamlarga to‘liq tasavvur va ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish uchun mediamuhitda fikrlar xilma-xilligini ta’minlash ham muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, davlat boshqaruvida mediasavodxonlikning asosiy jihatlaridan biri axborotning ishonchliligini tahlil qilish va baholash qobiliyatidir. Boshqaruv xodimlari OAV ma’lumotlari bilan ishlashda faktlarni fikrlardan ajratishi, soxta yangiliklarni tan olishi va tanqidiy fikrlashga ega bo‘lishi kerak. Bu ularga to‘g‘ri va ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi, manipulyatsiya hamda xatolardan saqlaydi.

Ommaviy axborot vositalari bilan muloqotda ham mediasavodxonlik muhim o‘rin tutadi. Boshqaruv xodimlari turli manfaatdor guruhlar bilan samarali muloqot qila olishi, faoliyatida shaffoflik va ochiqlikni ta’minlashi uchun ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, mediamuhit o‘zgaruvchanligiga moslashish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Ayni davrda raqamli savodxonlik alohida ahamiyatga ega, u raqamli texnologiyalardan foydalanish, axborotni samarali va xavfsiz qidirish, tahlil qilish va axborot almashish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu boshqaruv xodimlariga zamonaviy aloqa vositalari va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, shuningdek, kiberxavfsizlik sohasidagi tahdidlarga qarshi samarali kurashishda yordam beradi.

Mediasavodxonlikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

— tahlil qobiliyati — axborotning tuzilishini tushunish, uning asosiy elementlari va faktlarni aniqlash, tekshirish, axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish;

— tanqidiy fikrlash — OAV ma’lumotlarini tanqidiy baholash va sharhlash, to‘g‘riligi, ishonchliligi, betarafligi va nuqtayi nazarini tahlil qilish, o‘z fikrini mazmunli ifodalash;

— samarali muloqot — mediaaxborot muhitida o‘z fikr va g‘oyalarini aniq, ravshan ifodalash, turli ommaviy axborot vositalari orqali muloqot qilish xususiyatlarini tushunish, suhbat uslubini turli auditoriyalarga moslashtirish va rang-barang kommunikatsiya kanallaridan foydalanish.

Mediasavodxonlikni rivojlantirish zamonaviy jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Sababi, bugungi kunda ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, qarorlar qabul qilishda va odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda faol ishtirok etmoqda. Axborotni tahlil etish, tanqidiy fikrlash va mediaaxborot muhitida samarali muloqot qilish kompetensiyalari axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish va unga moslashish uchun zarurdir.

Davlat boshqaruvida mediasavodxonlikni rivojlantirish davlat organlari faoliyati samaradorligi va shaffofligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu ishonchli ma’lumotlarga asoslangan xabardorlik, to‘g‘ri, samarali qarorlar qabul qilish va jamoatchilik bilan muloqotni kuchaytirishga yordam beradi.

Mediatahlil — ommaviy axborot vositalarining mazmuni va shaklini tizimli, tanqidiy o‘rganish, baholash jarayoni. OAVdagi ma’lumotlarni tahlil qilishda ma’lumotlarning manbalari, maqsadi, mazmuni, kontekst, uslubi va taqdim etish usuli kabi turli jihatlar ko‘rib chiqiladi.

Mediatahlilning maqsadi OAV ma’lumotlari qanday yaratilishi, o‘zgarishi va tasavvur hamda fikrlarimizga ta’sir qilishini chuqurroq tushunishdir.

OAV ma’lumotlarini tahlil qilish qator usul va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchisi — faktlarning tanqidiy tahlili. OAV tahlilining muhim qismi materiallarda keltirilgan faktlarni tekshirish hisoblanadi. Taqdim etilgan ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘g‘riligi tekshiriladi hamda uni tasdiqlovchi dalillar yoki qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlanadi.

Ikkinchisi — manba ishonchliligini tekshirish. OAV ma’lumotlarini tahlil qilish manbalarning ishonchliligini baholashni ham o‘z ichiga oladi. Ya’ni ma’lumotlar muallifi kimligi, u qanday maqsadlarni nazarda tutishi, manbalar qanchalik xolis va haqqoniy ekanini aniqlash uchun tadqiqot olib boriladi.

Uchinchisi — kontekst tahlil. OAV tahlilining muhim jihati axborot taqdim etilayotgan kontekstni o‘rganishdir. Ya’ni ma’lumotni talqin qilish va idrok etish usuliga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar tahlil qilinadi.

Ommaviy axborot vositalaridagi ma’lumotlarni tahlil qilish davlat boshqaruvidagi xodimlar tanqidiy fikrlaydigan va xabardor iste’molchilar bo‘lishiga ko‘maklashadi. Bu OAVdagi manipulyatsiya va buzilishlarni tan olish, ishonchli, obyektiv ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Davlat boshqaruvida OAV ma’lumotlarini tahlil qilish davlat organlari xodimlarini xabardorlikka va tahliliy dunyoqarashga ega bo‘lishga yo‘naltiradi. Bu esa ongli va samarali qarorlar qabul qilish hamda jamoatchilik fikri va ehtiyojlarini hisobga olishga yo‘l ochadi. Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, qarorlar qabul qilishda muhim o‘rin tutadigan axborot texnologiyalari va globallashuv davrida bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Faktlarning tanqidiy tahlili ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan bayonotlar, hodisalar yoki ma’lumotlarni tekshirishni o‘z ichiga oladi. Bu usul faktlar to‘g‘riligini tekshirish, ma’lumotni boshqa manbalar bilan solishtirish va tasdiqlovchi ma’lumot yoki dalillar mavjudligini aniqlashdan iborat. Bunda ma’lumotni adekvat tushunishga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklar, xatoliklar yoki boshqa shubhali jihatlarni aniqlash muhimdir.

OAV ma’lumotlarini tahlil qilishda manbalarni tekshirish shart. Manbaning qay darajada to‘g‘riligi keltirilayotgan faktning nechog‘liq ahamiyatli ekanini aniqlab beradi.

Kontekst tahlil axborot taqdim etiladigan matnni tushunishga yordam beradi. Bunda axborotning shakli va mazmuniga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar o‘rganilishini nazarda tutish mumkin. Kontekstni tahlil qilish media ma’lumotlarini qanday qabul qilish mumkinligini, qanday yashirin maqsad va manfaatlar mavjudligini izohlash hamda ularni tushunishga ko‘maklashadi.

Yana bir muhim jihat OAV ma’lumotlari kontekstida tanqidiy fikrlash — ma’lumotlarni tanqidiy va mazmunli baholash, tahlil qilish va sharhlash qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda maxsus texnikalardan foydalanish mumkin. Birinchisi — savol berish. U tanqidiy fikrlashning asosiy texnikasi. Savollar kontekst, maqsad va taqdim etilgan faktlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ikkinchisi — muqobil nuqtayi nazarlarni topish. U ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan turli qarash va dalillarni solishtirgan holda o‘rganish va tushunishni o‘z ichiga oladi. Muqobil nuqtayi nazarlarni izlash taqdim etilgan ma’lumotni to‘liqroq anglashni o‘rgatadi.

Uchinchisi — argumentlarni baholash. Bunda ma’lumotlarning ishonchliligi, dolzarbligi va asosliligi haqida savollar berish muhimdir.

To‘rtinchisi — fakt va ma’lumotlarni tekshirish. Bunda qo‘shimcha manbalar izlanadi, taqdim etilgan ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘g‘riligi tekshiriladi, boshqa ilmiy manbalar bilan solishtiriladi.

Bugun dunyoda ustuvor o‘rinlarni eng ko‘p qurol ishlab chiqaradigan yoki energiya va boshqa resurslarni qazib oladigan emas, balki eng so‘nggi ilmiy-texnik g‘oyalarga asoslangan davlatlar egallamoqda. Ular turli axborot oqimlari, tegishli texnik vositalardan foydalanish, kommunikatsiya tizimlari va tarmoqlarini yaratish, ulardan samarali foydalanish hamda boshqaruv jarayonlarida boshqalarga qaraganda tezroq harakat qilish bobida ilgarilab bormoqda.

Jamiyat va davlatning ijtimoiy portlashlar va to‘ntarishlarsiz rivojlanishi uchun jamiyat hokimiyatning bevosita tartibga soluvchi ta’sirlariga adekvat munosabatda bo‘lishi va ular bilan belgilab qo‘yilgan rivojlanish sharoitlari va qoidalariga moslashishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro samarali muloqot o‘rnatish uchun davlat boshqaruvi kadrlari kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Samarali muloqot kompetensiyalari davlat boshqaruvi xodimlariga OAV orqali muloqot qilishda o‘z fikr va g‘oyalarini aniq, ravon ifodalashga yordam beradi. Natijada davlat boshqaruvida jamiyat bilan yanada samarali muloqotga erishish imkoniyati vujudga keladi.

Davlat xodimlari muloqotlarda moslashuvchan bo‘lishi kerak. Har bir auditoriyaning o‘ziga xos xususiyati va ehtiyojlari borligini muloqot jarayonida hisobga olish juda muhim. Moslashuvchanlik muloqotni turli muhitlar, madaniyatlar va kontekstlarga moslashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, mediasavodxonlikni rivojlantirish orqali davlat organlarida muloqot sifatini oshirish fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilash, intellektual qarorlar qabul qilinishini ta’minlash hamda aholi manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

YANGICHA YONDASHUVLAR

MINTAQAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALAR XABI

Ushbu maqsadga erishishda xalqaro hamkorlikning o‘rni

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, zamon talabidan kelib chiqib, yurtimizda telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Birgina o‘tgan yili ta’lim, bank, moliya, bojxona, qishloq xo‘jaligi, geologiya, kadastr kabi sohalarni raqamli transformatsiya qilish doirasida 100 ta dasturiy loyiha ishlab chiqildi. 500 dan ziyod yangi axborot texnologiyalari kompaniyasi tashkil etilib, sohaga 475 million dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kiritildi.

Mintaqaviy axborot texnologiyalar xabiga aylanishni maqsad qilgan O‘zbekiston bozoriga bugun xorij kompaniyalarining qiziqishi katta. Xususan, AQSHning ushbu yo‘nalishdagi gigantlari hamkorlikda yangi loyihalarni ishga tushirish, axborot texnologiyalari rezidenti sifatida faoliyat yuritishni reja qilmoqda.

Statistikaga ko‘ra, dunyo axborot texnologiyalari sektorining 33 foizi AQSH hissasiga to‘g‘ri keladi. Axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan kompaniyalarning jami qiymati 7 trillion dollar va bu G 20 ga a’zo 16 davlatning yalpi ichki mahsulotidan ko‘p demakdir. Ana shunday katta salohiyatga ega bozor, undagi gigant kompaniyalar bugun mintaqaviy xab bo‘lishga intilayotgan O‘zbekistonga qiziqmoqda.

Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan strategiyada belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida qator tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, Vashington shahrida o‘ndan ziyod ana shunday muvaffaqiyatli biznes egalari bilan hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi. Muzokaralar natijasida 12 ta kompaniya axborot texnologiyalari parki rezidenti sifatida ish boshlaydigan bo‘ldi. Shu orqali uch yil davomida ish o‘rinlari soni qariyb uch mingga, eksport hajmi esa 55,6 million dollarga yetkaziladi.

Raqamli kelajak ertangi kasblar uchun raqamli ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bugun axborot texnologiyalari infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirish, hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish davlatimizning doimiy diqqat markazida. Bunda asosiy e’tibor soha rivojiga qo‘shimcha sharoitlar yaratilishiga qaratilmoqda.

Jumladan, axborot texnologiyalari kompaniyalari hududlardagi bo‘sh turgan binolarga bir yil muddatga bepul joylashtiriladi, iqtidorli dasturchilarga bir yil ichida bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan kompyuter va texnika vositalari beriladi hamda 50 dan ortiq shu soha mutaxassisini ishli qilgan kompaniyalarning bir yil davomidagi ish haqi xarajatining 15 foizgacha qismi qoplab beriladi. Shu bilan birga, eksportchi korxonalarga chetdan ekspert jalb qilish, xalqaro konferensiyalarda qatnashish xarajatlarining 50 foizi kompensatsiya qilinadi.

Umuman, hisob-kitoblarga ko‘ra, shunday yangi imkoniyatlar hisobiga 2024-yilda axborot texnologiyalari xizmatlari hajmini ikki barobar oshirish mumkin.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bunga, birinchi navbatda, axborot texnologiyalari sohasiga yoshlarni qiziqtirish va malakali mutaxassislar tayyorlash, axborot texnologiyalari parkini xalqaro miqyosga olib chiqish va xorijiy vakolatxonalari sonini oshirish orqali erishish mumkin. Axborot texnologiyalari eksportini diversifikatsiya qilish, ya’ni faqatgina AQSH emas, balki Yaqin Sharq, Sharqiy va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarini qamrab olish orqali yuqorida qayd etilgan ko‘rsatkichlarga erishish osonroq kechadi.

AKT sohasini yanada rivojlantirish va global talablarga javob beradigan zamonaviy axborot texnologiyalari infratuzilmasini yaratish uchun xususiy kapitalni keng jalb qilish hisobiga raqamli infratuzilmani moliyalashtirishni oshirish zarur bo‘ladi. Bundan tashqari, sohada ta’lim va kadrlar tayyorlashni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, innovatsiyalar va tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish ham muhim ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda O‘zbekiston AKTni rivojlantirish va raqamlashtirish, ayniqsa, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatishda yuqori natijalarga erishdi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya, Rossiya, Estoniya, Xitoy bilan davom etayotgan hamkorlik bilan bir qatorda Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH, Singapur, Yaponiya kabi texnologik jihatdan rivojlangan davlatlarni mamlakat mazkur sektoriga jalb etish, xalqaro hamkorlik geografiyasini diversifikatsiya qilish ham muhim.

— Ushbu sohadagi xizmatlar eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, raqamli texnologiyalar sohasida 300 mingdan ortiq yuqori maoshli ish o‘rni ochish kabi strategik maqsadlarimiz istiqbolli hamkorlarni yurtimizga chorladi, — deydi Raqamli texnologiyalar vazirligi bosh mutaxassisi Elyor Maqsudov. — “Zero Risk” dasturi va Toshkentda tashkil etilayotgan Raqamli texnologiyalar markazi xorijliklarni qiziqtirib qo‘ydi. Xalqaro taraqqiyot uyushmasining 50 million dollarlik raqamli inklyuziv loyihasini jadallashtirish ko‘lamini kengaytirish borasida ham kelishuvlarga erishildi.

Shuningdek, ko‘plab uchrashuv va muzokaralar o‘z samarasini bermoqda. Jumladan, AQSHning yirik axborot texnologiyalari kompaniyalaridan biri — “DELL Technjlgies” rahbariyati bilan muloqotda sun’iy intellektga asoslangan zamonaviy dasturlash tizimlari talablariga javob beradigan va asosiysi, O‘zbekiston yoshlari uchun AQSH bozoriga masofaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ushbu kompaniyaning yurtimizda rasmiy ofisini ochish masalasida kelishuvga erishilib, tomonlar majburiyat xatini ham imzoladi.

Axborot texnologiyalari ta’limiga ixtisoslashgan “Epam systems” uchun O‘zbekiston bozori yangilik emas. 2019-yildan buyon axborot texnologiyalari parkining eng faol rezidentlaridan. Sohaga ixtisoslashgan birinchi universitet ham shu kompaniya bilan hamkorlikda ishga tushirildi. Kompaniya rahbariyati kelgusi yilda 65 ming mutaxassis tayyorlashda o‘z ishtirokini faollashtirishga tayyorligini bildirdi.

— Elektron hukumat loyihalari uchun mahsulot va xizmatlar eksporti bizda qiziqish uyg‘otdi, — deydi “Epam systems” kompaniyasi vitse-prezidenti Anna Denejjer. — Biz O‘zbekistonda “Epam systems” markazi ochilayotganidan juda xursandmiz. Bugun O‘zbekistonda sohada ta’lim oluvchi yoki shu sohaga qiziquvchilar soni ortayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Eng muhimi, salohiyat yuqori. Biz esa hamkor sifatida faqatgina natija ko‘rishni xohlaymiz. Talabalarda ozgina iste’dod ko‘rdikmi, uni to‘g‘ri yo‘naltirishga harakat qilamiz. Negaki ularning har biri noma’lum xazina singari. Asosiysi, bu jarayonda davlatning ko‘magi bor. Qolaversa, bizga yurtingiz raqamlashtirish, umuman, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilayotgani juda yoqdi. Biz bu jihatlarni qadrlaymiz.

Joriy yil 18-20-mart kunlari poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan forum ham xalqaro kompaniyalarga O‘zbekistonning axborot texnologiyalari va autsorsing sohasidagi salohiyati, shuningdek, mamlakatga sarmoya kiritish uchun hukumat tomonidan yaratilgan imkoniyat va chora-tadbirlarni keng namoyish etishga xizmat qildi. Yig‘ilishda ikki yuzga yaqin xorijiy ekspert hamda mahalliy soha vakillari ishtirok etdi.

Umuman olganda, joriy yilda axborot texnologiyalari xizmatlari hajmini 20 trillion so‘m, eksportini 800 million dollarga yetkazish, tarmoqlarda 130 ta axborot tizimini joriy qilish va 750 ta davlat xizmatini to‘liq raqamlashtirish vazifasi belgilangan.

Bir so‘z bilan aytganda, oziq-ovqat va dori-darmon, qimmatbaho kosmetik mahsulotlar tayyorlashda keng qo‘llaniladigan zaytun mevasiga bugun ehtiyoj nihoyatda katta.

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 27-aprel, 81-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Ona zamin ne’matlari

104 TA XOSIYATGA EGA DARAXT

yurtimiz tuprog‘ida qanday ildiz otyapti?

Abdurauf QORJOVOV,
sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

Zaytun yog‘i taom tarkibiga qo‘shilsa, xavfli o‘smalar va ko‘krak saratoni sezilarli darajada chekinadi. U ichak, oshqozon osti bezi va jigar faoliyatini yaxshilaydi, o‘t xaltasida tosh paydo bo‘lishining oldini oladi. Kalsiyning yaxshi so‘rilishini ta’minlab, suyak o‘sishini kuchaytiradi, qon bosimini yaxshilaydi.

Mevasi zararli nurlarga qarshi profilaktik vosita sifatida astronavtlar ovqati tarkibiga kiritilgan. Foydali xususiyatlarga boyligi uchun ham undan tayyorlangan mahsulotlar xaridorgir.

Yil bo‘yi yam-yashil bo‘lib turadigan barglarida antiseptik va mikrobga qarshi moddalar mavjud. Ulardan biri bo‘lgan oleuropeindan teri saratoni kasalligiga qarshi kurashishda qo‘llaniladi.

Iqtisodiy ahamiyati shundan iboratki, uning mevasi tarkibidagi qimmatbaho moy 44-72 foizni tashkil etadi. Iste’mol mahsuloti sifatida ta’mining xushbo‘yligi, dorivorligi jihatdan jahonda eng ustun sanaladi. U shifobaxsh kamfora va vitaminli eritmalar, turli xil xushbo‘y hidli atir-upalar tayyorlashda, konserva yoki yog‘i oziq-ovqat sanoatida keng miqyosda ishlatiladi. Mutaxassislar fikricha, O‘rta yer dengizi mamlakatlari aholisi, asosan, zaytun moyi iste’mol qilgani sababli sog‘lom va uzoq umr ko‘radi.

Jahonda Olea deb ataluvchi mazkur daraxt zaytundoshlar oilasiga mansub bo‘lib, 600 ga yaqin turi mavjud. Ular orasida Yevropa zaytunining qadri juda baland. U, asosan, O‘rta yer dengizi sohilidagi mamlakatlarda parvarishlanadi.

Zaytun mevali daraxtlar ichida dunyoda eng katta hududni egallagan va uning umumiy maydoni 11 million gektarga yetib qoldi. Bu olma, banan va mango daraxtlari ekilgan maydonlardan ikki marta keng, faqat kokos va moyli palmalar egallagan hududlarni birgalikda olganda zaytunzorlardan kengroq hisoblanadi. Bu borada Ispaniya (2 million gektar), Tunis (1,6 million gektar), Italiya (1,5 million gektar), Marokash (1,1 million gektar), Gretsiya (887 ming gektar), Turkiya (850 ming gektar) kabi mamlakatlar peshqadamlik qiladi. Shuningdek, Ozarbayjon, Gruziya, Turkmaniston, Rossiyaning Krasnodar o‘lkasida ham zaytun yetishtiriladi.

Keyingi o‘n yillikda zaytunzorlarning uch marta kengaygani uning mahsulotlariga talab oshgani bilan izohlanadi. Ayni paytda undan jahon bo‘yicha 19,3 million tonna moy ishlab

chiqarilayotgan bo‘lsa, asosiy qismi Ispaniya, Gretsiya, Italiya, Turkiya, Marokash kabi mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Bir so‘z bilan aytganda, oziq-ovqat va dori-darmon, qimmatbaho kosmetik mahsulotlar tayyorlashda keng qo‘llaniladigan zaytun mevasiga bugun ehtiyoj nihoyatda katta. 1 gektar zaytun plantatsiyasidan 15-17 ming dollar, uni qayta ishlash orqali esa 45-50 ming dollar miqdorida daromad olish mumkinligi sohaning iqtisodiyot tarmog‘idagi nufuzini yanada oshiradi. Shu bois, aynan zaytun moyidan katta daromad olgani uchun fermerlar uni “suyuq oltin”, deb e’zozlaydi.

“SUYUQ OLTIN” NI PARVARISHLASH AGROTEXNIKASI

— Zaytun daraxti avvaldan ekib kelinmagani uchun yurtimiz bog‘bon va fermerlari uni parvarishlash agrotexnikasi bilan tanish emas edi, — deydi Dilorom Yormatova. — Andijon va Surxondaryoda sinov tariqasida ekkanimizda amin bo‘ldikki, ko‘pchilikning unga qiziqishi ortib bormoqda. Binobarin, bugungi qishloq xo‘jaligi sohasi yangi o‘simlik navlarini o‘zlashtirishni talab qilyapti. Mirishkorlar bilimli bo‘lishi, notanish o‘simliklarni mahalliy iqlimga moslashtirishda tajriba o‘tkazishdan cho‘chimasligi kerak.

Aslida, zaytun ham anor, xurmo daraxtlari kabi ortiqcha parvarish talab qilmaydi. Qurg‘oqchilikka chidamli, 13-18 daraja sovuqqa ham bardosh beradi. Har tupidan 20-40 kilogacha hosil olinadi. Zaytunning pishgan mevasi tarkibida 25-80 foiz bug‘lanmaydigan moy bo‘ladi. Meva po‘stlog‘i va danagini qizdirish natijasida olinuvchi ikkinchi bosqichli moyi texnik ahamiyatga ega va sovun tayyorlashda qo‘llaniladi. Kunjarasi chorva uchun yemish vazifasini o‘taydi. Yog‘ochidan qimmatbaho buyumlar tayyorlansa, dorivor va yirik gulli zaytundan efir moyi olinadi.

o‘simlikning yaxshi rivojlanishi uchun imkon yaratadi.

Nihollar kuzda — sentabr va oktabr oylarida, bahorda martning boshidan mayning oxirigacha ekiladi. Demak, hozir ko‘chat ekishning ayni vaqti.

Ma’lumotlarga qaraganda, mamlakatimiz aholisining o‘simlik moyiga bo‘lgan talabi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan 55 foizga ta’minlanmoqda, ichki bozor ehtiyojining 45 foizi import hisobiga qoplanmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekiston aholisi orasida kungaboqar va paxta yog‘i mashhur

> **Ma’lumotlarga qaraganda, mamlakatimiz aholisining o‘simlik moyiga bo‘lgan talabi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan 55 FOIZGA TA’MINLANMOQDA, ICHKI BOZOR EHTIYOJINING 45 FOIZI IMPORT HISOBIGA QOPLANMOQDA.**

Zaytunning yana bir xususiyati, u qishda barglarini to‘kmaydi. Bir dona bargi 2-3 yilgacha yashaydi. Daraxt yorug‘likka talabchan bo‘lib, quyoshni yaxshi ko‘radi va suvsizlikka chidamli. Shu bois, janubiy hududlarga alohida e’tibor qaratilyapti. Masalan, Surxondaryoda issiq ob-havo muddati yiliga 227-266 kunni tashkil etadi.

Quyosh nuri yetarli bo‘lgan hududlarda uning mevasi tez pishib yetiladi. Qiyaligi 400 metrgacha bo‘lgan maydonlar zaytunzor barpo qilish uchun eng qulay hisoblanadi, bundan tashqari, tuproqning suv o‘tkazuvchanligi yaxshi bo‘lishi kerak.

Zaytun ko‘chatlarini bir oz chuqurroq ekish zarur. Barcha subtropik ekinlarga o‘xshab zaytun ham pastki novdalaridan yana yangi novdalar hosil qiladi. Zaytunning namlikka talabi dastlabki 4-6 yilda yuqori bo‘ladi, shuning uchun ko‘chatlarni tez-tez sug‘orib turish lozim.

Mineral o‘g‘itlar berilsa, yillik o‘sish me’yori bir-bir yarim metrgacha boradi. Azotli o‘g‘itlarni bahorda kultivatsiya yordamida, fosforli va kaliyli o‘g‘itlar esa kuzgi haydov bilan beriladi. Bundan tashqari, organik o‘g‘itlar berish hisoblanadi. Dastlabki kezlarda zaytun moyining narxi kungaboqar va paxta yog‘i bilan solishtirganda ancha yuqori va uni ishlab chiqarish qimmatga tushishi tabiiy. Yaqin kelajakda zaytunzorlar kengayib, ularning mahsuloti og‘irroq tosh bosgani sayin esa muvozanat o‘zgaradi, aholi talabini qondirishda zaytun moyining hissasi ham orta boradi. Yuqorida qayd etilganidek, uni oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati va tibbiyot, diyetologiya, kosmetologiyada ham keng qo‘llash mumkin.

Bugungi kunda 1 litr zaytun moyining do‘konlardagi o‘rtacha narxi 150 ming so‘m. Ispaniyadan keltirilgan moylarning narxi esa bundan ham yuqori. Zaytun o‘zimizda yetishtirilishi narxning hamyonbop bo‘lishiga olib keladi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, mahsulot qimmat bo‘lmasa, uni kundalik ratsioniga kiritadiganlar ham ko‘payib boraveradi. Bu esa aholi salomatligi uchun muhim.

To‘g‘ri, zaytun yetishtirishda boy tajribaga ega yetakchi mamlakatlar ko‘p. Ammo serquyosh zaminimizda yetishtirilgan mazkur mahsulot ozuqa moddalariga boyligi uchun ham jahon bozorida unga talab yuqori bo‘lishiga ishonch uyg‘otadi.

ILMIY ASOS VA AMALIY IMKONIYATLAR

Professor Dilorom Yormatova uzoq yillardan buyon zaytun daraxtini mamlakatimiz iqlim sharoitiga moslashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib boradi. Uning bu yo‘nalishdagi ishlari zaytun yetishtiruvchi qaysi mamlakatga yo‘li tushgan bo‘lsa, o‘sha yerdan turli qimmatbaho sovg‘alar emas, balki dunyo bog‘dorchiligida “suyuq oltin” deb ataluvchi daraxtning qalamcha va ko‘chatlarini keltirishdan boshlangan.

Shu tariqa O‘zbekistonda zaytun daraxtini parvarishlash tarixini yaratishga 2002-yil fevralda Turkiyadan 4 tup zaytun daraxti ko‘chati olib kelishdan kirishildi. Ular subtropik mintaqa bo‘lgan Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanida ekildi.

Tabiiyki, shu vaqtgacha biror olim yoki bog‘bon tomonidan zaytun yetishtirish borasida tajriba o‘tkazilmagan, amaliy qo‘llanma ham yaratilmagan. Biologiyasini o‘rgangan bo‘lsa-da, olimaning o‘zi ham bu o‘simlik hosil beradimi-yo‘qmi, degan savolga aniq javob berolmas edi. Olib borilayotgan tajribalar to‘rt yil davomida sir saqlandi, chunki xulosa noma’lum edi. 2006-yilda “Jovli” fermer xo‘jaligida birinchi marta zaytun daraxtlari gullab, hosil tugdi va ularning mevasi sentyabr oxiri, oktyabr boshlarida pishib yetildi. Ajablanarli tomoni, mevasining kimyoviy tarkibi tadqiq etilganda, undagi o‘ta foydali sanalgan skvalen moddasi Italiya va Gretsiyaning zaytun moylariga qaraganda ham yuqori ekani ma’lum bo‘ldi.

Olima yangi mevali daraxtni o‘zimizning iqlim va tuproq sharoitimizga moslashtirish bo‘yicha izlanishlarni izchil davom ettirdi. Ularning samarasini Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondining Andijondagi bog‘ida yurtimiz iqlimiga moslashtirilgan 14 turi parvarishlanayotganida ko‘rish mumkin. Farg‘ona viloyatidagi dorivor o‘tlar bilan shug‘ullanadigan “Mehrigiyo” firmasida ham zaytun o‘stirilmoqda va uning bargidan turli dorivor moddalar tayyorlanmoqda. Shuningdek, aholi xonadonlarida ham ancha-muncha zaytun ko‘chatlari mavjud.

Zaytunshunos opaning uzoq yillik mashaqqatli izlanish va amaliy sa’y-harakatlari besamar ketmadi: “Izumrud”, “Qorako‘z” kabi zaytun navlari davlat reyestriga kiritildi.

Demak, mamlakatimizda zaytunchilik ilmiga asos solindi va qalamchalar orqali ko‘payishiga imkoniyat yaratildi. Bunda hududlarning iqlim sharoiti inobatga olingan holda, ayniqsa, sovuqqa chidamli navlarining fiziologik jihatlari o‘rganildi va zarur ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Yurtimizda zaytun yetishtirishga e’tibor va qiziqish ortib bormoqda. Jumladan, Oltinsoy tumani Bibi Zaynab qishlog‘ida yashovchi Xushboq Rahmonovning chorak gektar maydonga ekkan zaytunlari 2018-yilda hosilga kirdi. Oradan ko‘p o‘tmay, har bir daraxtdan 20-25 kilodan meva olindi.

— Zaytunni 25 sotix maydonga ekkanman,

deydi fermer. — Ko‘paytirish oson ekan. Endi qalamchalar tayyorlab, sotyapman. Avvaliga odamlar ikkilandi: pul sarflab sotib olsa-yu, hosilga kiritolmasa, mehnat besamar ketadi. Ammo keyinchalik hosilini ko‘rgach, ularda ham ishonch paydo bo‘ldi.

Shu jihatdan qaraganda, yurtimiz iqlimiga mos xurmo daraxtini yetishtirish ham janubiy viloyatda ana shunday kichik tajribalardan boshlangani yodga tushadi. Dastlabki vaqtlar xurmo daraxtlari sovuq urmasligi uchun o‘rab qo‘yilgan va asta-sekin iqlimimizga moslashtirilgan. Endilikda xurmo yurtimizning barcha hududida yetishtirilmoqda, bozor rastalari va dasturxonlarimiz bu ajoyib ne’mat bilan to‘kin. Xorijiy ellarda ham talabgir.

Bundan uch yil oldin Prezidentimizning Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida berilgan topshiriqqa asosan, 500 gektar maydonda zaytun plantatsiyalari barpo etilishi belgilangan edi. Rejaga binoan, Oltinsoy, Muzrabot, Uzun, Bandixon, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo, Termiz tumanlarida zaytunzorlar yaratish ishlari olib borilyapti.

Xususan, 2022-yil bahorda Oltinsoy tumanida zaytun yetishtirishga ixtisoslashgan mas’uliyati cheklangan jamiyat tashkil etildi. Tomchilatib sug‘orish texnologiyasi joriy qilingan 50 gektar maydonga Turkiyadan keltirilgan “Orbikina” navli 66 ming tup zaytun ko‘chatlari ekildi.

— Nihollarning ancha qismi o‘sha yiliyoq gullab, hosilga kirdi, — deydi tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi rahbari Isroil Bozorov. — Chunki biologik xususiyatiga ko‘ra, uni boshqa mevali daraxtlarga mos kelmaydigan yerlarda ham yetishtirsa bo‘ladi. Tarkibida kalsiyli tuzlar ko‘p, unumdorligi o‘rtacha bo‘lgan maydonlarda ham yaxshi o‘sadi. Uning hosili mo‘l, mevasida moy miqdorining yuqori, ayni paytda sifatli bo‘lishi yoz faslining serquyoshligiga bog‘liq. Bu jihatdan bizning imkoniyatlarimiz katta.

Lekin 2023-yil yanvar oyi boshida ro‘y bergan o‘ta qattiq sovuq yayrab ildiz otayotgan nihollarni ham urib ketdi. Ammo o‘simlikning yaxshi xususiyati shunda ekanki, bunday holatda uning tuproq ostida qolgan, uxlab yotgan kurtaklari uyg‘onib, unib chiqadi. Shuning uchun hamma ko‘chat tuplarini o‘n santimetrdan qoldirib kesib chiqdik. Qarangki, ularning qariyb yarmi may oyida ko‘karib, barg chiqardi. Bu yil qishda qor ancha ko‘p yoqqaniga qaramay, zaytunlarni sovuq urmadi. Nasib etsa, kuzga borib uning hosilidan yuqori sifatli moy olishni rejalashtirib turibmiz.

Tez orada o‘ta qattiq sovuqqa dosh bermagan ko‘chatlar o‘rnini ham to‘ldiramiz. Bu borada Samarqand viloyatidagi “Bog‘bon” agrokompleksi bilan shartnoma tuzganmiz. Qolaversa, bu majmua bilan hamkorligimiz ikki yil oldin boshlangan. Ularga ancha-muncha zaytun qalamchalarini yetkazib berganmiz.

— Seleksiya natijasida nisbatan sovuqroq iqlimga mos navlar ham yaratilyapti, — deydi Jomboy tumanidagi “Bog‘bon” agrokompleksi laboratoriyasi rahbari Ilyos Haydarov. — Jumladan, zaytunning ispaniyalik seleksionerlar yaratgan “Orbikina” navi 22 daraja sovuqqacha chidamli bo‘lib, asosan, yog‘ olish uchun o‘stiriladi.

24 gektarlik agrokompleksda laboratoriya sinovlaridan o‘tgan turli ko‘chat va qalamchalardan iqlimimizga mos keladiganlari, jumladan, zaytun navi ham yetishtirilyapti. Hozirga kelib, “Zaytun plantatsiyalarini ko‘paytirish loyihasi” asosida 100 ming tupdan ortiq ko‘chat tayyorlandi.

Ayni kunlarda Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlari, Surxondaryo viloyatining Oltinsoy, Bandixon, Qumqo‘rg‘on tumanlarida ham yangi zaytun bog‘lari yaratishga kirishilgan. Mutaxassislarning fikricha, gektariga 800 tup ko‘chat ekiladi. Risoladagidek parvarishlansa, ular uchinchi yildan boshlab 1 tonna hosil beradi. Undan esa 300 litr yog‘ olish mumkin. Hosildorlik yil o‘tgan sayin ortib boradi.

Ma’lumot uchun aytish joiz, Prezidentimiz 2021-yil 2-avgustda imzolagan “Zaytun moyi va zaytun mevasi to‘g‘risidagi xalqaro bitimga (Jeneva, 2015-yil 9-oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi haqida”gi qonun soha rivojidagi yana bir muhim qadam bo‘ldi. Mevani o‘zimizda yetishtirish, import o‘rnini qoplab, eksportga ham yo‘naltirishga yo‘l ochildi. O‘zbekiston Xalqaro zaytun kengashining to‘laqonli a’zosi hisoblanadi. Mazkur tashkilot 1959-yilda tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda zaytun moyi yetishtiruvchi va ishlab chiqaruvchilarining 80 foizini, eksport qiluvchilarining 98 foizini birlashtiradi.

Jadidlar ruhi

“TURON” KUTUBXONASI VA AKBARBEK DOLIMOV

Ulug‘bek DOLIMOV,
jadidshunos

1946-yil qishining ayozli kechasi. Marziya buvim: “Yulduzlar, jigarporam Akbarga salom aytinglar, men undan roziman!” deya Allohga iltijo qilib, hayotdan ko‘z yumgani hamon xayolimda. Shundan keyin yana qancha o‘n yilliklar o‘tdi, ammo undan dom-darak bo‘lmadi. Xo‘sh, Akbarbek kim edi? Nima sababdan sho‘ro hukumati uning fojiali qismatini xalqdan, oilasidan, ilm ahlidan yashirdi? Endi 32 yoshni qoralagan, ammo o‘z sohasida ikki katta mukammal kitob yozib ulgurgan va nashr ettirgan birinchi o‘zbek bibliografi, manbashunosi Akbarbek Dolimov kim ekanini hozir ko‘plar bilmasligi tabiiy. Zero, oqadam (biz, jiyanlar Akbarbek amakimizni “oqada” der edik) haqida 2002-yili maqola yozayotib, men ham deyarli hech narsa bilmasligimga iqror bo‘ldim.

Bu davrga kelib, uning hamma aka-ukalari, opa-singillari, ko‘plab maktabdosh do‘stlari vafot etib ketgan edi. Axir Akbarbek amakimning vafotiga ham 80 yildan oshdi. Otam, onam, amakilarim va ammalarim hayot vaqtida ularning jigarbandi Akbarbek haqida biror narsani surishtirib bilib olmabman. Mana, u haqda yozyapman-u, bir kichik ma’lumotga zorman. Hamma vaqt odamning ko‘zi nisbatan kech ochiladi, shekilli.

Shu muammo bilan To‘rabek akamga murojaat qilgan edim, boshlagan ishimni ma’qullab, ba’zi ma’lumotlarni berdi: “Oqadam qamoqqa olingan vaqtda men besh yoshda edim, hozir ularni tasavvur ham qilolmayman, lekin adam, oyim ular haqida gaplashib qolardi. Adamning gaplariga qaraganda, Akbarbek amakim o‘rta bo‘yli, ancha ko‘rkam, nihoyatda harakatchan, aka-ukalariga, singillariga nisbatan qattiqqo‘l, o‘ziga ham, o‘zgalarga ham talabchan odam bo‘lgan. Adabiyot va san’atni jon-dilidan sevgan, tanburni yaxshi chalgan, rasm chizishga katta ixlos qo‘ygan. Aka-ukalaridan farqli ravishda bolaligidayoq kitobga alohida mehr qo‘ygan, o‘zi uchun shinam kutubxona tashkil qilgan, vaqt o‘tishi bilan uni boyitib borgan”.

Akbarbek 1909-yili Toshkentning Sag‘bon mahallasida, Dolimbek Muhammadaminbek o‘g‘li va Marziya Qozoqboy qizi oilasida oltinchi farzand bo‘lib dunyoga keladi. Dastlab shu mahallada amakilari Komilbek va Karimbek Norbekovlar rahnamoligida ochilgan va Abdulla Avloniy shogirdi, jadid muallim G‘ulom Qodir domla o‘qituvchilik qilgan usuli jadid maktabida, keyin esa hamma bolalar qatori sho‘ro maktabida o‘qiydi. Uning o‘smirlik va yigitlik yillari Sag‘bon, Chorsu, Shayxovand Tohur, Xadra, Chig‘atoy, Oqlon, Xastimom mavze va mahallalari uchun o‘rtaliq bo‘lgan, jadidlar tashkil qilgan ma’rifat maskani — Eski Jo‘vadagi “Turon” kutubxonasi va katta qiroatxonasida o‘tadi. Zero, bu kutubxona shunchalar boy ediki, unda Qozon, Qrim, Tiflis, Orenburg, hatto Istanbulda nashr etilgan gazeta va jurnallar, noyob kitoblargacha bor edi.

Akbarbek ayni shu yerda millatni istiqlol, mustaqillik sari yetaklagan Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, tog‘alari Mirmulla, Mirmuhsin Shermuhamedovlar hamda ularning kuyovi, atoqli shoir Elbek, shuningdek, Abdulla Qodiriy, Shokirjon Rahimiy, G‘ozi Yunus kabi jadid mutafakkirlari ta’sirida bo‘ldi, ularning asarlari bilan ilk bor shu maskanda tanishdi.

U Abdurauf Fitratning yoshlarni hayratga solgan ona Vatan haqidagi “Sayha” (“Na’ra”) she’rlar to‘plamini ham shu “Turon” kutubxonasidan topib o‘qigan edi. Aytish joizki, jadid mutafakkirlari tashkil qilgan “Turon” kutubxonasi yoshlarning eng sevimli maskani bo‘lgan.

Mazkur kutubxona 1913-yilda “Turon” xayriya jamiyati huzurida Munavvarqori va Avloniy rahbarligida ochilgan. Kutubxonaga sho‘ro hukumatining dastlabki yillarida pedagog olim Shokirjon Rahimiy rahbarlik qilgan. Yosh Akbarning kelgusida bibliograf-manbashunos bo‘lib yetishuviga ham xuddi shu “Turon” kutubxonasi va qiroatxonasi sabab bo‘lgandir, ehtimol.

Shu o‘rinda ikki-uch og‘iz XX boshlaridagi Eski Jo‘va haqida to‘xtalib o‘tsam. Eski Jo‘va Toshkentning eng ko‘hna mavzelaridan bo‘lib, shaharning qoq markazi sanalgan. Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom kabi ulug‘ yozuvchilar ham o‘z asarlarida bu mavzeni ko‘p tilga olgan. Zero, millatparvar jadid mutafakkirlarining faoliyati ham, asosan, Eski Jo‘vada kechgan bo‘lib, undagi har bir ko‘cha, har bir bino, muassasa jadidlar faoliyatini esga solib turardi.

“Turon” xayriya jamiyati va uning huzuridagi “Turon” kutubxonasi hamda qiroatxonasi, “Turon” gazetasi, “Turon” dramtruppasi shu yerdagi yonma-yon hovli va binolarda faoliyat ko‘rsatgan. “Turon” atamasi esa jadid mutafakkirlari uchun Vatan timsoli sifatida muqaddas bo‘lgan.

Abdurauf Fitrat ona Vataniga “Turklikning muqaddas o‘chog‘i, Turon!” deb murojaat qilgan. 1918-yil 12-mayda vatanimizning birinchi oliy o‘quv yurti — Turkiston xalq dorilfununi ham Turkiston jadidlari rahnamosi Munavvarqori boshchiligida shu Eski Jo‘va mavzesidagi sobiq Vikula Morozov do‘koni (Abdulla Avloniy rahbarligida faoliyat ko‘rsatgan “Turon” dramtruppasi, sho‘ro davrida esa Yosh tomoshabinlar teatri bo‘lgan) binosida tantanali ravishda ochilgan edi.

Jadid publitsist-yozuvchilar va shoirlar Mirmulla, Mirmuhsin hamda jamoat arbobi Mirmuslim Shermuhamedov va atoqli shoir, nosir, tarjimon, istiqlol fidoyisi Mashriq Yunusov — Elbekkacha mana shu mavzening Mahsido‘zlik mahallasida yashagan, uning ijodi shu yerda shakllanib, kamol topgan. Eski Jo‘vaning yonginasida ancha e’tiborli Beklarbegi (sho‘rolar davrida buzib tashlangan) hamda Chorsudagi mashhur Ko‘kaldosh madrasalari hamma vaqt aksariyati jadidchilik harakati ta’siridagi yoshlar bilan gavjum bo‘lgan. Mahsido‘zlik ko‘chasi ro‘parasida esa G‘ulom Hasan Orifjonovning jadid mutafakkirlari asarlarini muntazam nashr etib turgan “G‘ulomiya” xususiy matbaa-nashriyoti, yana bir tomonda esa Toshkentning hozir ham eng katta va mashhur savdo rastalaridan biri Eski Jo‘va bozori joylashgan edi.

Shularni ko‘z oldingizga keltirsangiz, XX asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan ma’rifatparvar bobolarimizning kutubxona uchun joy tanlashda naqadar aql-zakovat bilan ish ko‘rganidan hayratga tushasiz. Shu o‘rinda aytish kerakki, mustaqillik yillarida Eski Jo‘va mavzesida juda katta e’tiborga loyiq qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgani bois, biz yuqorida tilga olgan maskanlar butunlay o‘zgarib ketib, uning nomi faqat bozordagina qoldi, xolos. Endilikda saqlanib qolgan, istiqlol fidoyilarini eslatuvchi binolarni asrab-avaylash, ta’mirlash va ilojini topib, mazkur mavzeda Jadidlar xiyoboni tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Akbarbek Dolimov shu tariqa millatning istiqlol sari intilishiga bosh bo‘lgan jadidchilik harakati muhitida voyaga yetdi. U 1927-1929-yillarda kutubxonachilik kursida o‘qib, uni tugatgach, o‘sha o‘zi mehr qo‘ygan “Turon” kutubxonasiga ishga kiradi. 1932-yildan e’tiboran esa turmush mashaqqatlariga qaramay, Toshkent davlat pedagogika institutining kutubxonachilik fakultetida o‘qishni davom ettiradi. Zero, 1930-yillardan boshlab otasi va amakilari boshida sho‘ro hukumatining ta’qib va tazyiqlari keskin tus olgan edi. Ammo Dolimbekning hamma farzandlari ming xil mashaqqat va o‘qishdan haydalishlar hamda tiklanishlar bilan bo‘lsa-da, birin-ketin oliy o‘quv yurtlarini bitirib, xalq, vatan xizmatiga kirishadi. Akbarbek o‘sha siyosiy va iqtisodiy og‘ir vaqtdan boshlaboq “Oktyabr” (bolsheviklar hukumati o‘zbek xalqining qadimiy vatani nomi “Turon”ni juda-juda yomon ko‘rar, bu nomni yo‘q qilish uchun kurashar edi. Shuning uchun “Turon” kutubxonasi 1927-1992-yillarda — 65 yil davomida “Oktyabr” nomi bilan atalgan) nomidagi kutubxonada bibliograf sifatidagi ishini davom ettiradi va tez orada shu kutubxonaning rahbari darajasiga ko‘tariladi.

U bu yerda bir necha yil direktor va direktor muovini sifatida ishlab, oktyabr to‘ntarishigacha bo‘lgan davrdagi va undan keyingi vaqtli matbuot nashrlari — “Turkestanskiye vedomosti”, “Turkiston viloyatining gazeti”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Tujjor”, “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Turon”, “Xalq dorilfununi”, “Samarqand” kabi gazetalarning, “Oyina”, “Al-isloh”, “Al-izoh”, “Yer yuzi”, “O‘zgarishchi yoshlar”, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” (“Sovet maktabi” jurnalining dastlabki nomi), “Yangi yo‘l” (“Saodat” jurnalining dastlabki nomi) kabi jurnallarning to‘liq boylamlarini shakllantirishga erishdi.

Akbar Dolimovning kutubxonani yanada boyitish, bibliografiya fanini rivojlantirish sohasidagi bunday xizmatlari uchun unga 1934-yiliyoq “O‘zbekiston mehnat zarbdori” unvoni berilgan edi. Unda kutubxonachilikka, bibliografiya va manbashunoslik ilmiga tug‘ma qobiliyat yaqqol ko‘zga tashlanib turardi.

U Fayzulla Ubaydullayev bilan hamkorlikda “Mukammal ilmiy bibliografiya” kitobini yaratdi. 252 sahifali ushbu asarda 1920-1934-yillarda o‘zbek tilida nashr etilgan uch mingga yaqin kitobning umumiy tavsif va tasnifi berilgan. O‘zbek bibliografiyasi sohasida yaratilgan birinchi kitob bo‘lgan bu asar 1934-yili O‘zbekiston davlat nashriyotida bosmadan chiqarilgan. Shuningdek, Akbar Dolimov va Sobir Solihov 1937-yili respublika kutubxonachi va bibliograflariga metodik yordam sifatida “Unli klassifikatsiya” asarini nashr ettiradi. Har ikkala asarda ham birinchi muallif A.Dolimov bo‘lgan. Bu ikkala asar bo‘lajak kutubxonachilar, bibliograflar uchun asosiy qo‘llanma vazifasini bajargan.

30-yillarda “Turon” kutubxonasida Akbar Dolimov bilan birga atoqli bibliograf, manbashunos olim Abdulla Nosirov (Nosixiy) ham faoliyat ko‘rsatgan. 1972-yili Akbarbek Dolimovning ma’rakasi kuni aka-uka No‘monbek, Subutoy, Ziyodbek va Sultonbek Dolimovlar bilan bo‘lgan suhbatda u bunday degan edi: “Akbar Dolimov kutubxonachilik ishining katta bilimdoni edi. “Turon” kutubxonasining respublika miqyosida e’tibor qozonishida, ulkan ma’rifat o‘chog‘iga aylanishida uning hissasi salmoqli bo‘lgan. 30-yillarda “Oyina”, “Sadoi Farg‘ona”, “Turkiston” taxlamlarini tartibga solish ancha og‘ir bo‘lganiga qaramay, u samarqandlik Hoji Muin Shukrullo, Abduqodir Shakuriy, qo‘qonlik Po‘latjon domla Qayumiy, Abduvahob Ibodiy, toshkentlik Abdulla Avloniy, Muhibulqori Orifiy bilan aloqada bo‘lib, ularning yordamida yetishmayotgan va qattiq shikastlangan sonlarini topib to‘ldirdi, ba’zi manbalarning foto nusxasini yaratdi. Bu taxlamlar hozir Alisher Navoiy nomidagi kutubxonada hamda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasida saqlanmoqda. Akbar qamoqqa olinganda navqiron yigit yoshida edi, ammo kutubxonachilikka oid bir necha asar yozishga ulgurgandi. U jahon kutubxonachilik tarixi bilan qiziqar va “Turon”ni ham O‘zbekistonning eng boy kutubxonalaridan biriga aylantirish uchun harakat qilar edi. Qatag‘on deb atalmish mash’um voqealar bo‘lmaganda, u, albatta, katta bibliograf, manbashunos olim bo‘lib yetishishi mumkin edi. Alloh uni rahmatiga olgan bo‘lsin”.



U Abdurauf Fitratning yoshlarni hayratga solgan ona Vatan haqidagi “Sayha” (“Na’ra”) she’rlar to‘plamini ham shu “Turon” kutubxonasidan topib o‘qigan edi. Aytish joizki, jadid mutafakkirlari tashkil qilgan “Turon” kutubxonasi yoshlarning eng sevimli maskani bo‘lgan.

Akbarbek Dolimov va Fayzulla Ubaydullayevning “Mukammal ilmiy bibliografiya” asari bilan sho‘rolar davrida birinchi bo‘lib tanishgan va o‘rgangan taniqli olim, filologiya fanlari nomzodi Sherali Turdiyev o‘zbek adabiyotshunosligiga bag‘ishlangan bibliografik asarida undan keng foydalanadi. Shu inson 2002-yili “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida ushbu satrlar muallifining Akbarbek Dolimov haqidagi “Sir saqlangan jinoyat” maqolasi e’lon qilinishi munosabati bilan gaplashib qolganimizda quyidagilarni aytgan edi: “60-yillarning oxirida Akbar Dolimov va Fayzulla Ubaydullayevning 20-30-yillar o‘zbek adabiyotiga bag‘ishlangan “Mukammal ilmiy bibliografiya” nomli noyob asari qo‘limga tushib qoldi. “Akbar Dolimov kim, universitetdagi birinchi ustozim Subutoy Dolimovga qanday aloqasi bor?” degan savollar bilan domlaga murojaat etgan va undan ba’zi ma’lumotlarni olgan edim. Ulug‘bek, sizning bu maqolangizni o‘qib, menda kitobimning ikkinchi nashriga Akbarbek Dolimov va uning ushbu noyob asari haqida yangi bob qo‘shish, shuningdek, A.Dolimov va F.Ubaydullayevning “Mukammal ilmiy bibliografiya” asarini qayta nashr etish fikri uyg‘ondi. Bu o‘zbek tilida yaratilgan birinchi va yuqori ilmiy saviyada yozilgan asar ekaniga to‘la ishonch hosil qildim”.

U Fayzulla Ubaydullayev bilan hamkorlikda “Mukammal ilmiy bibliografiya” kitobini yaratdi. 252 sahifali ushbu asarda 1920-1934-yillarda o‘zbek tilida nashr etilgan uch mingga yaqin kitobning umumiy tavsif va tasnifi berilgan. O‘zbek bibliografiyasi sohasida yaratilgan birinchi kitob bo‘lgan bu asar 1934-yili O‘zbekiston davlat nashriyotida bosmadan chiqarilgan.



Afsuski, Sherali aka Turdiyev bu xayrli niyatini amalga oshirishga ulgurmasdan hayotdan ko‘z yumdi.

30-yillarning ikkinchi yarmidan keskin tus olgan ommaviy qamashlar, qirg‘inlar xalq ziyolilarini qay ahvolga solgani to‘g‘risida ko‘plab maqolalar, kitoblar yozilgan. Zero, ma’lumotlarga qaraganda, 1938-yilning o‘rtalariga kelib, milliy ziyoli rahbar xodimlarning oltmish foizi qatag‘on qilinadi. Bu zug‘umning keyingi o‘rami esa Ikkinchi jahon urushi davriga to‘g‘ri kelgan edi. Akbarbek Dolimov ham xuddi mana shu o‘ram — Ikkinchi jahon urushining boshlarida qamoqqa olingan.

Sovet hukumati xalqni “hushyorlik”ka chaqirish bahonasida yana shubha ostiga olingan kishilarni yo‘q qila boshlagan xuddi mana shu davrda — 1941-yilning noyabr oyida NKVD (Ichki ishlar xalq komissarligi) “Oktabr” kutubxonasining bir yo‘la to‘rt xodimi — Akbar Dolimov, Asad Ubaydullayev, Ahad Tursunov va kutubxona direktori Rahimjon Ibrohimovni qamoqqa oladi. “Katta savdogar boy oilasidan chiqqan” A.Dolimovni aksilinqilobiy tashviqotlar yuritganlikda ayblab, “Yulduz” fabrikasiga tutash “Moskva” turmasining aksariyat vatanparvar, millatparvar fidoyilarning so‘nggi kunlariga guvoh bo‘lgan o‘lim kamerasiga tashlaydilar.

Dastlabki tergov 19-noyabrdan 26-noyabrgacha uzluksiz davom etgan. Odatdagidek huquqiy me’yorlarga umuman amal qilinmasdan, tergov inson ruhiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi usullardan keng foydalanilgan holda olib borilgan. Tergovning asosiy usuli qo‘rqitish, xo‘rlash, azob berish bo‘lgan. Jumladan, agar tergov xodimlari bilan hamkorlik qilishdan bosh tortsa, oila a’zolariga tazyiq o‘tkazilishini aytib ham qo‘rqitishgan. Zero, bunday tergovlar faqat bir narsaga — qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, ayblanuvchining aksilinqilobiy faoliyatini tasdiqlashga qaratilgan edi.

Akbarbek Dolimov: “Men hech qanday aksilinqilobiy faoliyat yuritgan emasman, menga yopishtirilayotgan ayblarning birortasini qabul qilmayman”, deb qat’iy rad etadi. Ammo adolatsiz tergov o‘z bilganidan qolmaydi, zulm, vahshiylikni davom ettiraveradi. Sho‘ro hukumati qatag‘on yillarida o‘zbeklar, xususan, yosh o‘zbek yigitlari orasida bo‘lib turadigan, asrlardan beri davom etib kelayotgan, “gap” nomini olgan dam olish gurunglariga ham siyosiy tus bergan edi. Shu bois, Akbar Dolimovning 1941-yil 26-noyabrda tuzilgan ayblov qarorida quyidagilarni o‘qiymiz: “Aksilinqilobiy kayfiyatda bo‘lgan Akbar Dolimov 1939-yildan sovet hukumatiga qarshi yig‘in (gap)larda qatnashgan va aksilsho‘roviy ruhdagi guruhlar bilan partiya siyosatini tanqid qilgan”.

Shunday ayblov bilan ushbu guruh ishi SSSR Ichki ishlar xalq komissariyatining maxsus kengashiga oshirilgan. Kengash Akbar Dolimov va Rahimjon Ibrohimovni otuvga hamda mol-mulkini musodara qilishga, Ahad Tursunov va Asad Ubaydullayevni 10 yil ozodlikdan hamda 5 yil saylash va saylanish huquqidan mahrum etishga hukm chiqargan. Umuman, bu kengashga yuborilgan ish hech qachon ijobiy natija bilan qaytgan emas.

Ha, bunday asossiz va o‘ta fojiaviy hukmlar o‘sha davr sho‘ro siyosatida odat tusiga aylangan edi. Eng dahshatlisi, ushbu tuzum bu kabi vahshiyliklari bilan ham cheklangan emas. Hukm chiqarilgach, afv etish haqida ariza yozmoqchi bo‘lgan mahkumdan, avvalo, “o‘z ayblariga iqrornoma” yozdirib olinib, shundan keyingina afv so‘rab ariza yozishga ruxsat berilardi. Akbar Dolimov qismati ham shunday bo‘ldi. Uning shaxsiy ishidagi afv so‘rab yozgan “iqrornoma”sida esa bunday so‘zlar bor: “Menga belgilangan otuv jazosini yengillashtirishingizni iltimos qilaman, chunki mening qaramog‘imda qari ota-onam va yetti jon bor”. Ammo bunday iltijolar inobatga olinmagan.

Dolimovlar oilasining boshqa farzandlari — ukalari Ziyodbek va Sultonbek Ikkinchi jahon urushi jang maydonlarida vatan uchun, xalq uchun jon olib, jon berib kurashib, hatto yapon militarizmiga qarshi janglarda ham faol qatnashadi. 1945-yil oxirlarida g‘alaba bilan oila quchog‘iga qaytadi, ammo Akbarbek Dolimov qatag‘on komida qolib ketadi. Sho‘rolar qirg‘in-qatag‘oni shunchalar dahshatli ediki, uning changalidan omon qolish tegirmondan butun chiqish bilan barobar edi. Akbarbek qismatini aniqlash uchun aka-ukalarning turli-tuman idoralarga yelib-yugurishlari, yozishmalari ham natija bermadi, ota-ona farzand dog‘ida hayotdan ko‘z yumdi.

1972-yil iyul oyi tunlarining biri. Soat bir-ikkilarda daf’atan No‘monbek Dolimov hovlisi eshigi taqillaydi. Eshikni o‘g‘li To‘rabek aka ochadi. Bemavrid kelgan rus millatiga mansub bu kishi o‘zini Davlat xavfsizligi qo‘mitasi polkovnigi Kazakov deb tanishtiradi. Dolimovlarning katta avlodi bunday “tashriflar”ni ko‘raverib, yuragini oldirib qo‘ygan edi. Kazakov qizi universitetga kirish uchun hujjat topshirganini aytib, bu ishda No‘mon Dolimovdan yordam so‘raydi.

Dolimov ham fursatdan foydalanib, unga yordam berajagini aytadi va ukasi Akbarbek Dolimovning taqdiri nima bilan tugaganini hujjatlar asosida bilib berishni iltimos qiladi. Oradan 20 kunlar o‘tgach, polkovnik va’dasiga muvofiq, No‘monbek Dolimovga Akbar Dolimovning 1942-yilning 26-avgustida “xalq dushmani” sifatida otib tashlangani, 1956-yilning 14-iyunida uning ishi qayta ko‘rib chiqilib, oqlangani haqidagi hujjatlarni topshiradi.

E’tibor bering, Akbar Dolimovning otib tashlanganiga 30 yil bo‘lgan-u, ammo buni xalqdan sir saqlashgan, hatto oila a’zolariga bildirishni ham lozim hisoblashmagan. Hech bo‘lmasa, uning oqlangani haqidagi ma’lumotni ham bildirishmagan. Zero, 1945-yili urush tugagach, qahramon ona Marziya Qozoqboyeva (14 farzandning onasi) vafotiga sanoqli oylar qolganda o‘g‘li Akbarbekning taqdirini aniqlash maqsadida O‘zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligiga so‘nggi bor xat bilan murojaat qilgan. NKVD esa bu xatga: “O‘g‘lingiz Krasnoyarsk o‘lkasiga surgun qilingan, surgun muddati tugagan emas” degan javob yuborgan.

Toshkentda 1942-yildayoq otib o‘ldirilgan odam haqidagi javobni qarang! Ularning shunday munosabati tufayli bechora onaizor o‘g‘lini kuta-kuta adoyi tamom bo‘ldi, otasi Dolimbek Norbekov 1958-yilda vafot etib ketdi. Inson taqdiriga, butun bir oila qismatiga shunchalar e’tiborsizlik, bepisandlik bo‘ladimi?! Atoqli yozuvchi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanini eslang. Bu haqiqiy ma’noda genotsid edi. Shu tariqa sho‘rolarning adolatsiz siyosati domiga tushgan Akbarbek Dolimov oilasi ham butunlay barbod bo‘ldi, undan hech kim qolmadi. Shifokor Fotima ammamning aytishicha, Akbarbekning 3 yoshli katta o‘g‘li To‘xtabek otasiga ichikib, sog‘inib uch oyda va Chingizbek ismli ikkinchi o‘g‘li esa yigit yoshida vafot etgan. Rafiqasi Tojiniso aya farzandlari dog‘ida kuya-kuya o‘lib ketadi.

Akbarbekning aka-ukalari, opa-singillari polkovnik taqdim qilgan hujjatlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgachgina unga aza ochadi, yurtga ma’raka oshi berib, uning ruhiga Qur’on baxshida etdi. Xullas, bu ham qizil saltanatning Dolimovlar oilasi boshiga yog‘dirgan fojialaridan edi.

Tabiiyki, bu gaplarni, qismatlarni sho‘rolar zamonida aytib ham, yozib ham bo‘lmas edi. Shuning o‘ziyoq mustaqillikning bizga nima berganini anglatmaydimi? Axir inson qadridan yuksakroq nima bor bu dunyoda?! Shu yurtning ozodligi, shu elning baxt-saodati yo‘lida qirg‘in-qatag‘onga uchraganlar ruhini yod etar ekanmiz, bugungi kunlarga — mustamlaka zulmidan abadiy ozod bo‘lganimizga shukronalar aytamiz.

“Turon” kutubxonasi qayta tashkil etilar ekan, jadid mutafakkirlarining tarqoq holdagi, odamlar qo‘lidagi, hatto chet ellarga tarqalib ketgan asarlaridan nusxalar olish — jadidshunoslik markazini vujudga keltirish kerak. O‘sib kelayotgan yangi avlod ongiga, shuuriga jadid bobolarimizning vatan, millat, mustaqillik uchun hatto aziz jonlarini ham nisor etganini singdirish, ularning buyuk ishlariga sodiq bo‘lish ruhida tarbiyalash hammamizning muqaddas burchimizdir.

Kitobxonlikni rivojlantirishda, avvalo, onalarni mutolaaga jalb qilishga jiddiy yondashishimiz kerak. Zero, hadeb bugungi avlodning kitob o‘qimay qo‘yganidan noliyverish bilan kitobxonlik madaniyatini shakllantirib bo‘lmaydi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 27-aprel, 81-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Kitobxonlik madaniyati

TARBIYANING ENG AVVALI VA AFZALI

MUTOLAAGA muhabbat UYG‘OTISHdir

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Bilasanmi, Amerika nima uchun rivojlangan? Negaki qaysi xonadonga kirmagin, u quruvchimi, yozuvchimi, ijodkormi — javoni to‘la kitob. Chunki ular o‘qiydi. Ularning fikrlashi kuchli. Ular uchun eng muhimi bilim olish, o‘z kasbini egallash. Bizda-chi, muhimi — birdan katta pul topish. Uy, mashina sotib olsa bo‘ldi. Ayollarga-chi, ayollarga qo‘sha-qo‘sha brilliant ziraklar, bo‘yniga osib olgan taqinchoqlar yoki qimmat pardalar, mebel. Hayotni shunchaki tor doirada tasavvur qilishadi. Bu, menimcha, kelajak uchun judayam achinarli holat. Odamlar o‘qimay, ilm olishni istamay qo‘ydi. Ongli hayotni xohlashmayapti. Bu ketishda nima bo‘ladi, hayronman. Bunday yashab bo‘lmasligini, bunday yashash tarzi fojiaga yetaklashini bilasanmi-a?

— To‘g‘ri aytasiz. Gapingizda jon bor. Afsuski, hozirgi yoshlarga kitob qiziq bo‘lmay qoldi. Ularga hozir faqat internet, qo‘lidagi telefon va hokazolar bo‘lsa bas. Bilmadim, balki zamonning talabidir.

— Bu ketishda qayerga boramiz, qayerga?”.

Milliy seriallarimizdan birida tasodifan eshitib qolganim shu suhbatdan so‘ng vaqt topib “yengil-yelpi” emasdek tuyulgan bu serialning 3-4 ta qismini ko‘rdim. Bosh qahramonning otasi — o‘qituvchi homilador ayoliga har kuni “Eshiting, bu paytda mutolaa juda muhim o‘rin tutadi”, deb kitob o‘qib berar ekan. Ayoli ham o‘qilayotgan har bir hikmatning mag‘zini chaqishga harakat qiladi. Vaqt o‘tib, tug‘ilgan bola — bosh qahramon ham kitobxon bo‘lib, o‘yinqaroq do‘stlarining “Bu tezroq uyiga borib kitob o‘qishi kerak, o‘qituvchining bolasi-ku”, degan doimiy pichinglariga ko‘nikib ketadi.

Anglaganim shuki, kitobxonlikni rivojlantirishda, avvalo, onalarni mutolaaga jalb qilishga jiddiy yondashishimiz kerak. Zero, hadeb bugungi avlodning kitob o‘qimay qo‘yganidan noliyverish bilan kitobxonlik madaniyatini shakllantirib bo‘lmaydi. Yoppasiga bunga erishish ham juda qiyin masala. Keyingi paytlarda qizlarning sepiga kitob ham solib berish kerak, degan gaplar bejiz quloqqa chalinib qolmayapti. Aksariyat fazilat va xislatlarning farzandga ona vujudidan o‘tishi haqiqat ekan, kitobga muhabbatni ham ona qornidayoq uyg‘otishga ulgurishimiz zarur. Ibn Sinodek alloma ham farzandni ona qornidan boshlab tarbiya qilish kerakligini ta’kidlagan-ku, axir. Tarbiyaning eng avvali va afzali esa — mutolaa tarbiyasi.

Shu o‘rinda o‘tgan yili gazetamizda yoritganimiz — Xorazmda boshlangan yangi bir an’anani yana bir bor esga olishni joiz bildik. Maqolada Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyati bo‘limi rahbari Bekzod Abdirimov viloyatda xonadonlarni yangi kitob javonlari bilan boyitish uchun tanlovlar g‘oliblariga kitob to‘ldirilgan ixcham javonlar sovg‘a qilinayotganini aytgandi. Shuningdek, mahallalardagi kayvonilar bilan yangi turmush qurayotgan yoshlarga ota-onalari, yaqinlari tomonidan to‘yona sifatida shunday mo‘jaz javonlar sovg‘a qilishga kelishib olingani, ularning o‘zlari ushbu xayrli tashabbusni boshlab berganidan biz ham xursand bo‘lgandik.

Bekzod akaning: “Axir farzandlarimizga to‘y qilsak, bir lahzalik avtokarvoniga 10-20 million, “Love story”siga 5-10 million so‘m, yana qandaydir amallarga mablag‘imizni ayamaymiz-u, ularning ma’rifati, zehni uchun ikki millionni qimmat ko‘rmasak kerak? Xorazmliklar ilgari surgan bu ibratli tashabbus bugun urfga kirib, ertaga zamonaviy urf-odatga aylansa, nur ustiga nur bo‘lar edi. Qimmatbaho mebellar, tilla taqinchoqlar, o‘tkinchi hoy-u havasga berilmay, kitob to‘la javonlar sovg‘a qilishni boshlashimiz, o‘rnak bo‘lishimiz kerak! Shundagina bu tashabbus umummilliy harakatga aylanadi. Yaqin 3-4 yil ichida nafaqat Xorazmdagi, balki butun O‘zbekistondagi barcha xonadonlar kitob javoniga ega bo‘ladi. Chaqaloqlar kitoblar taratayotgan ma’rifat hididan nafas olib ulg‘ayadi”, degan gaplari kimlarningdir g‘ashiga tegishi mumkin. Biroq vaqt o‘tib, bu gaplar isbotini topganida, ya’ni kitob o‘z qudratini ko‘rsatganida, bunday kimsalarning o‘zlari uyalib qoladi.

Aslida, bugun kitob o‘qiymiz desak, barcha sharoit yetarli. Sotib olishga mablag‘imiz bo‘lmagan taqdirda esa boshqa imkoniyatlar mavjud. Chekka qishloqlarda ham xonadonlarga internet yetib boryapti. Ayni paytda qo‘li ishda-yu, quloqchin bilan audioasar tinglayotganlar safi ortib borayotgani quvonarli. Shahar, tuman markazlarida, poytaxtda yashovchi kitobxonlarga esa zamonaviy kutubxonalar xizmat qilyapti. Bugun chinakam kitobxon yoshlar hali o‘rta maktabni tamomlamay turib, ota-onasini avtomashinali qilishga qodir bir davrda yashayapmiz.

Yaqinda Prezidentimiz Yangi Toshkent shahridagi inshootlar qurilishiga start berar ekan, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi yangi binosi taqdimoti bilan ham tanishdi. Umumiy maydoni 30 ming metr kvadratni tashkil qiladigan yangi majmuada ayni paytda kutubxona fondida saqlanayotgan 10 milliondan ortiq adabiyotni munosib saqlash va bir paytning o‘zida 1420 kitobxonga sifatli xizmat ko‘rsatish uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Bunday e’tibordan ruhlangan O‘zbekiston Milliy kutubxonasi direktori Umida Teshaboyeva biz bilan suhbatda quyidagilarni alohida ta’kidladi:

— Milliy kutubxonaga rahbarlik qilish ortidan juda katta tarixiy uchrashuvda qatnashganimdan nihoyatda baxtiyorman. Yangi Toshkent shahrida bunyod bo‘lajak beshta katta ma’rifat maskanlari orasida Milliy kutubxonaning ham qad rostlashi bizga cheksiz g‘urur bag‘ishladi. Vaholanki, kutubxonaning hozirgi binosida kitobxonlarga joy yetmayotganiga ko‘pchilik ishonmasligi mumkin. Ko‘plab rahbarlar bu holatni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, quvonayotgani ham bor gap. Bu oxirgi yillarda kutubxonachilik sohasiga berilayotgan yuksak e’tibor natijasi. Yangi Toshkentdagi to‘rt qavatli muhtasham kutubxona eng yangi texnologiyalar bilan jihozlanish hisobiga bir paytning o‘zida bir yarim million kitobxonga xizmat qila oladi. Turklar bilan hamkorlikda tayyorlangan, kitobxonlarning barcha talab va ehtiyojlari inobatga olingan loyihamiz Prezidentimiz tomonidan iliq qabul qilinganidan benihoya xursand bo‘ldik. Kutubxonamizda kitobxonga xizmat ko‘rsatish ham jahon darajasida bo‘ladi. Milliy kutubxona ma’naviyatimizning eng ishonchli qo‘rg‘oni, ko‘zgusi bo‘lishiga, ma’naviyatimizni keng targ‘ib qilishiga bor salohiyatimizni safarbar etamiz.

Ha, bugun yurtimizda kitobxonlarning qadri baland, kitob o‘qiyotganlar safi tobora kengayib boryapti. Yaqin kelajakda qariyb ikki barobar kengaytirilayotgan Milliy kutubxonamiz qatori joylardagi barcha ziyo maskanlari ham kitobxonlar bilan liq to‘ladi. Umid qilamizki, odamlar yana kitoblarning shivirini eshitishni, kutubxonalarning o‘zgacha fayzini ko‘rishni istaydi, uning chinakam nurxona ekanini his qila boshlaydi.

Tahlil minbari

BIZ QANDAY BO‘LISHIMIZ KERAK?

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Dunyoni qayta qurishga majbur qilgan omil — Ikkinchi jahon urushidan keyin deyarli barcha millatlar o‘ziga o‘zi suyanibgina xos yo‘lni topishi mumkinligini anglab yetdi. Yo‘lini topa olmaganlar esa boshqalarning izmida qolib ketmoqqa majbur edi. Lekin bu jarayon qanday kechdi? Endigina boshlanib kelayotgan texnologik davr, o‘zaro nifoqlarda kurashuvning yangi unsurlari, bu kurashlarga ilm-fanning butunlay jalb etilishi hamda pinhonalik sharoitida millat sifatida qanday yashab qolish mumkin edi? Shubhasiz, natijaga eskicha qarashlar hamda qoloq ma’naviyat bilan erishib bo‘lmasdi. Buning uchun millatlar o‘z dunyoqarashini yangidan rivojlantirmog‘i, qisqacha aytganda, zamonaviylashmog‘i yagona chora edi.

Aynan shu “anglash” so‘nggi yuz yillikda “uxlayotgan” ko‘hna Sharqning ham qator davlatlarini uyg‘otib yubordi. “Yapon mo‘jizasi”, “Koreys mo‘jizasi” hamda Singapur taraqqiyot modeli kabilar yuzaga keldi. Bu “mo‘jizalar” ortida esa shubhasiz mazkur millatlarning butunlay zamonaviy fikrlash tarziga o‘tgani, o‘z-o‘zini isloh etgani yotardi.

Xo‘sh, biz qanday yashashimiz kerak? Sovetlarning an’anaviy mafkurasidan qutulganiga o‘ttiz yildan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, xalqimiz, tan olish kerak, bugun ham zamonaviylashish yo‘lida hamon oqsayotir. Hanuz dabdaba, bid’at hamda maishiychilik tikanlaridan yo‘limizni butunlay tozalay olmayapmiz. Dunyoga tengma-teng bo‘ylashmoq ilmini bilsak-da, amalida ikkilanyapmiz. Nafs amriga qaram, yeb-ichishdan ortmayotgan, tafakkur chirog‘ini yoqmoqqa urinib ham ko‘rmaydiganlarimiz topiladi, mayda-chuyda orzulardan ortmaymiz. Hanuz olis-olis sayyoralarga manba sifatida emas, mo‘jiza sifatida qarashda davom etaveramiz. Hamon zamon dvigateli bo‘lgan ta’limga, uning rivojiga birvarakay jon koyitmaymiz.

Xo‘sh, o‘zi bugungi dunyoda qanday yashamoq kerak?

VATANPARVARLIK

Birlashgan xalqning eng birinchi xislati vatanparvarlik bo‘lmas ekan, har qanday aql mo‘jizasi vatan manfaati uchun xizmat qilmas ekan, uning ortida yashirin kuchlarning pinhona manfaatdorligi payt poylab yotaveradi. Dunyoning bugungi geosiyosiy ahvoli shunday. Bunday vaziyatda har qaysi mamlakatning do‘sti faqatgina o‘zining aholisidir. Jumladan, O‘zbekiston uchun ham o‘z farzandlaridan ko‘ra xayrixohroq do‘st yo‘q. Bu esa har bir yurtdoshimizdan yuksak vatanparvarlikni talab qiladi. Nimaiki kasb bilan shug‘ullanmasin, qayerda bo‘lmasin, vatan o‘z farzandlaridan muhabbat kutadi, har bir inson ham doimo vatanga ehtiyoj sezadi.

Bir yozuvchi degan edi: “Vatanparvarlik tuyg‘usini nimagadir o‘xshatish mumkin bo‘lsa, men uni klassik uslubdagi libosga o‘xshatgan bo‘lardim. Qanchadan qancha yangi modalar yaratilmasin, biz uni baribir kiyaveramiz, u baribir bizga yarashaveradi”.

ILM-MA’RIFATLILIK

Agar XXI asrning asosiy kuchi hanuz qurol-aslaha-yu dahshatli bombalarda deb hisoblasak, zamonni tushunishda bir oz ortda qolibmiz. Chunki bugun mohiyat ham, taraqqiyot ham moddiyatdan ko‘ra ma’naviy olamga ko‘proq bog‘liq. Hozirgi davrda bir davlatdan ikkinchisiga quroldan ko‘ra, qog‘oz-qalam ko‘tarib borish anchayin xavfliroq. Sababi, asrlar davomida qurolli odamdan do‘st chiqmasligi ong-u shuurimizga singib ketgan, ammo qalam ko‘tarib kelib, butun mintaqalarning tabiati, madaniyati, e’tiqodi, iqtisodiyoti hamda talab va takliflarini o‘rganayotgan, shu ilmlarga tayanib, ular ustidan pinhon tajribalar o‘tkazayotgan siyosiy guruhlar xavfidan hamma ham birdek ogoh emas. Ilm kuchiga esa ilm bilan qarshi turmoq mumkin. Zero, yurtimizdagi yer osti, yer usti boyliklarining hammasini o‘rganmoqqa, o‘zlashtirmoqqa o‘zimizning salohiyatimiz yetmas ekan, bu masalalarda boshqalarning ko‘magiga muhtoj bo‘lishda davom etaveramiz. Istagim — jahon tajribasida allaqachon muomalada bo‘lgan “ilm-fan immuniteti” bizda ham to‘liq shakllansa... Zero, ota-bobolarimizdan qolgan go‘zal hikmat ham bor: “Issiq-sovug‘ing o‘zing bilan bo‘lsin”.

ZIYRAKLIK

Yangi asrda dunyo bir-biridan maqsad jihatidan shunchalar uzoqlashib ketdiki, buni oddiygina mikroskop nazari bilan aniqlashning imkoni yo‘q. Bugun faqatgina bir narsa aniq-ravshan: har qanday ijtimoiy-siyosiy aloqalarning tub zamirida manfaat yotibdi. Biroq bunday o‘yinlarning oxirida kim g‘olib, kim mag‘lubligini bilishning yagona chorasi o‘ta ziyraklikdir. Ziyraklikning ustozi esa o‘tmish tajribasi. Shu o‘rinda zamonaviy dunyoda tariximizni yaxshi o‘rganmoq nechog‘liq ahamiyatli ekani ayonlashadi. Ba’zan yillab yechimi topilmagan jumboqlar, oshkor bo‘lmagan qiyofalar birgina tarixiy tajriba orqali fosh etilishi mumkin. O‘tmishida biz kabi ko‘p qand yegan ham, pand yegan ham millat oz bo‘lsa kerak.

Demak, tarixni yaxshi bilish, undan zarur xulosalar chiqarish hamda har qanday tashqi jarayonlarni ziyraklik bilan tahlil qilish zamonaviy xalqning asosiy sifatlaridan biri bo‘lmog‘i shart.

TOMONI ANIQ

Dunyoning manfaat nuqtayi nazaridan bo‘linishi tomonlarni tanlash zaruratini paydo qiladi. Bugun hamma narsada bo‘linish kechmoqda, faqat siyosiy emas, madaniy, ijtimoiy, hatto umumbashariy tushunchalar ham tarafkashlik kasb etayotir. Shunday vaziyatda har bir insonning, har bir millatning aniq tomoni bo‘lishi nihoyatda zarur. Ming afsuski, o‘zbek bo‘la turib, shu tuproqda unib-o‘sib, butunlay boshqa tomonlarga “tosh bosayotgan” yurtdoshlarimiz hali ham oramizda bor. Ammo ular buning millat taqdiri uchun qanchalar salbiy ekanini anglarmikan? Axir biz o‘zbek bo‘la turib, O‘zbekistonni dunyoning barcha mamlakatidan ustun qo‘ymasak, tarixiy quvvatimizning suyagi sovimaydimi? To‘g‘ri xulosa shuki, zamonaviy xalqimizning tomoni bitta — O‘zbekiston davlati bo‘lishi lozim.

JAMIYATGA FOYDALI

Eskidan qolgan bir gap bor: “Foydang tegmasa, hech bo‘lmasa zararing ham tegmasin”. Biroq bugun bu maqoldagi “foydang tegmasa...” mazmunidagi talabni haqiqat hisoblash qanchalik to‘g‘ri? XXI asr — demokratiya asri. Bunda har bir fuqaroning o‘z pozitsiyasi, muayyan vazifasi bor. Har kim ana shu pozitsiyadan turib, jamiyatga, mamlakatga foyda keltirmog‘i esa zamonning haqli talabi. Zero, bu immunitet yanada mustahkamlanmas ekan, boqimandalik illati tobora bolalaydi. Boqimandalikdan yuqumliroq illat yo‘q. Bunday ayanchli, boqqanga bosh eguvchi jamiyat jamiyat deyishga arzimaydi. Shunday ekan, jamiyatga naf keltirish ham zamonaviy xalqimizning muhim sifatlaridan biri bo‘lishi lozim.

Zamon shiddat bilan rivojlanar ekan, yashash talablari ham takomillashib borishi tabiiy hol. Zamon kishisi esa bu o‘zgarishlarni hamnafaslik ruhida, eng avvalo, o‘zidan boshlamog‘i darkor. Ana shundagina u “yuqumli”, nafli bo‘lgay.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1372.
44595 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimamatova
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 20:43 Topshirildi — 23:10

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05